

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLUKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqqan
boshlagan

2025-yil 11-aprel
№15 (3129)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM TAYANCHI DIR!

www.mv.gov.uz/vatanparvar.uz



IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Yangi davr sarhadlari



UCH YETAKCHI — BIR MAQSAD:

XO'JANDDAGI TARIXIY KELISHUV

MUHIM QADAM

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida ko'plab chegara nizolari vujudga keldi. Mahalliy aholi va chegarachilar o'rtasida sodir bo'lgan ziddiyatlar ba'zan qurbonlar keltirib chiqargani ham bor gap. Bu muammolarni hal etish uchun O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi davlat chegaralarini aniq belgilash yo'lida uzoq yillardan beri muzokaralar olib borilmoqda. Biroq olti marotaba o'tkazilgan uchrashuvlarga qaramay, samarali kelishuvga erishish oson kechmayotgan edi.

Nihoyat, joriy yilning 31-mart kuni Tojikistonning Xo'jand shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlari o'rtasida tarixiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda uch davlat yetakchilari davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi kelishuvni imzoladi. Bu kelishuv nafaqat chegara masalalarini aniq belgilab berdi, balki mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

MUZOKARALARNING ASOSIY JIHATLARI

Chegaralarning aniq belgilab olinishi natijasida uch davlat o'rtasidagi bahsli hududlar masalasi hal etildi, bu esa uzoq yillik tortishuvlarga chek qo'yadi. Transport aloqalarining tiklanishi tufayli avval yopilgan yo'llar, temiryo'l va havo yo'nalishlari qayta ochiladi. Bu esa iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi.

Chegara postlarining qayta faoliyat yuritishi natijasida Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasidagi Qayrag'och

va Qizil-Bel chegara postlari qayta ishga tushirildi. Bu esa chegaradan o'tish jarayonini yengillashtirib, aholi uchun qulaylik yaratadi.

MINTAQAVIY AHAMIYAT VA ISTIQBOLLAR

Bu kelishuv nafaqat qonuniy chegaralarni belgilash, balki xalqlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Prezidentining qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, o'zaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi tashabbuslari xalqaro ekspertlar va siyosatchilar tomonidan yuqori baholanmoqda. Bu sa'y-harakatlar mintaqada davlatlari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqib, turli yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Ayniqsa, chegaradosh viloyatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish orqali aholi farovonligini oshirish rejalashtirilgan. Bojxona tizimini takomillashtirish, savdo-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, uch tomonlama savdo maydonchasini tashkil etish yuzasidan ilgari surilgan takliflar ushbu yo'nalishdagi muhim qadamlar sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, sanoat kooperatsiyasi doirasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish, investitsiya hajmini bosqichma-bosqich oshirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish maqsad qilingan. Bu nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki aholining daromadlarini ko'paytirishga ham xizmat qiladi.

Transport sohasidagi islohotlar ham dolzarb masalalar qatorida. Avia, temiryo'l va avtobus yo'nalishlarini tartibga solish va kengaytirish turizm rivoji uchun qulaylik yaratish bilan birga, xalqlar o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "yashil" energiya va transport, suv va ekologiya sohalarida yirik mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Bu kabi tashabbuslar ekologiya muammolarini hal qilish, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish va atrof-muhit muhofazasiga hissa qo'shishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlari mintaqada barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ODDIY ODAMLAR HAM XURSAND

Qirg'iziston va Tojikiston jamoatchiligi ham mazkur kelishuvni ijobiy baholab, uning istiqbollariga katta umid bog'lamoqda.

– Chegara muammolarining tinch yo'l bilan hal etilishi nafaqat men, balki qirg'iz xalqi uchun ham katta quvonch baxsh etadi. Chunki bu masala chegara hududlarida yashayotgan, azaldan bir-biriga qo'ni-qo'shni, do'st va quda-anda bo'lgan ikki millat uchun uzoq yillardan beri og'riqli muammoga aylangan edi. Xo'jandda O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlarining oqilona va do'stona kelishuvga erishgani nafaqat xalqlarimiz, balki

butun dunyo uchun ibrat bo'ldi. Yer talashib, nizolashayotgan davlatlar bizning yetakchilarimizdan murosa va madorani o'rgansa arziydi.

Bu tarixiy kelishuv ikki davlat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlab, xalqlarimiz farovonligi yo'lida muhim qadam bo'ldi. Afsuski, har qanday ezgu ishga nisbatan noxolis yondashadiganlar topiladi. Biroq xalqlarimiz hamjihatlik va do'stlikni ustuvor deb biladi va bu kabi fitnalarga berilmaydi.

Yaqinda bir ma'lumot e'tiborimni tortdi: joriy yilning yanvar-fevral oylarida Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi 163 million AQSh dollarini tashkil etgan. Solishtirish uchun aytganda, 2024-yilning shu davrida bu ko'rsatkich 96,2 million AQSh dollari bo'lgan, xolos. Qirg'iziston Prezidentiga qarashli Statistika agentligi keltirgan bu raqamlar savdo-iqtisodiy hamkorligimiz jadal rivojlanayotganidan darak beradi, – deydi Qirg'iziston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, O'sh viloyati Aravon tumanidagi "Do'stlik" gazetasi bosh muharriri Shuhratbek Hojiyev.

– Ikki xalqning buyuk daholari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asos solgan qadrdonlik udumi keyingi davrda qariyb unutilayozgan edi, buni nadomat bilan eslamay ilojimiz yo'q. Bugungi kunlarda o'zbek va tojik xalqi orasidagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy aloqalarning qayta tiklanishini esa eng ezgu tarixiy voqea sifatida baholash mumkin. Zero barchamiz bu yaqinlikni, do'stona munosabatlar tiklanishini dildan istayotgan edik.

Har ikki mamlakat Prezidentlarining bir-biriga birodar ikki xalq manfaatini ko'zlab tashlagan muhim qadamlari orzu-umidlarimiz poydevorining yana bir pog'ona yuksalishiga zamin yaratdi, – deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Rudakiy nomidagi Tojikiston davlat mukofoti sohibi Odil Ikrom.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy rivojlanish va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo'lida bu kelishuv ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berishi mumkin. Bu nafaqat geografik jihatdan muhim hujjat, balki xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan ulkan tarixiy qadamdir. Shu bois, bugungi tarixiy voqelik kelajak avlodlar uchun ham ahamiyatli bo'lib qolishi shubhasiz.

Hamzabek TURDIYEV,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi

Jarayon

XALQARO PARLAMENT DIPLOMATIYASI RIVOJLANISHINING YANGI ISTIQBOLLARI

Bugungi kunda parlament diplomatiyasi xalqaro munosabatlarda muhim omilga aylanib bormoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash, muloqot va hamkorlikni rivojlantirishda ularning faoliyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda parlamentlararo aloqalar qonun chiqaruvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiribgina qolmay, balki keng qamrovli mintaqaviy va global masalalarni muhokama qilish uchun ham samarali platformani shakllantirmoqda.



Bu jarayonlarda xalqaro maydonda o'zining boy tarixi va nufuzi bilan ajralib turuvchi Parlamentlararo Ittifoq tashkiloti alohida o'rin tutadi. Ushbu tashkilot turli mamlakatlarning parlamentlarini birlashtirgan holda xalqaro maydonda tinchlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlari va parlament qadriyatlarini ilgari surishda samarali maydon vazifasini bajarmoqda. **Tashkilot 1889-yildan beri turli davlatlarning qonun chiqaruvchi organlarini birlashtirib, ular o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, barqarorlik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.** Bugungi kunda ushbu ittifoq 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirib, xalqaro jarayonlarda parlamentlarning ovozi yangrashiga imkoniyat yaratib berayotgan global tashkilot sifatida faoliyat olib bormoqda.

Ta'kidlash joiz, Parlamentlararo Ittifoq o'zining eng yuqori organi – Assambleya sessiyalarini odatda parlamentarizm sohasida ijobiy tajriba va islohotlarning amaliy natijalariga ega bo'lgan, barqaror rivojlanishga intiluvchi davlatlarda o'tkazadi. Bu esa tanlangan mamlakatning xalqaro nufuzi, ochiqlik siyosati va demokratik qadriyatlarga sodiqligini yana bir bor e'tirof etishni anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, 5–9-aprel kunlari **O'zbekiston global parlament diplomatiyasining markaziga aylandi – Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi bo'lib o'tdi.** Bu tarixiy voqea mamlakatimizning xalqaro nufuzi tobora yuksalib borayotganini amalda ko'rsatib, O'zbekistonning global miqyosda muloqot va barqaror rivojlanishni ilgari surishdagi muhim o'rni dunyo darajasida e'tirof topayotganidan dalolatdir.

Mamlakatimiz parlament tizimini rivojlantirish, gender tengligini ta'minlash va ayollarning siyosiy jarayonlardagi rolini mustahkamlash sohalaridagi katta yutuqlar ham bunday yirik xalqaro anjumanning aynan O'zbekistonda o'tkazilishiga xizmat qilgan omillardan biri, deyish mumkin. Ta'kidlash joiz, Toshkentning Assambleya mezbonligiga tanlanishi ramziy ma'no kasb etmoqda. Boisi 2025-yil ko'plab muhim sana va tadbirlarning yubileyariga to'g'ri kelmoqda. Parlamentlararo Ittifoq ayol deputatlari forumiga 40 yil, BMTning Ayollar maqomiga oid Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi qabul qilinganiga 30 yil, shuningdek, "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" mavzusidagi BMT Xavfsizlik Kengashining 1325-sonli rezolyutsiyasi qabul qilinganiga 25 yil to'lishi, shular jumlasidandir.

2025-yil 7-aprel kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida ilk bor Markaziy Osiyoda o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoq Assambleyasi ochilishida nutq so'zladi. Davlatimiz rahbarining nutqi Assambleya doirasidagi muhokamalarga mazmun va yo'nalish berib, global parlamentlararo muloqotning istiqbolli yo'nalishlarini ochib berdi.

Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan qator tashabbuslar bildirildi.

BIRINCHIDAN, O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to'g'risida"gi rezolyutsiyasini xalqaro maydonda qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi. Mazkur rezolyutsiyaning qabul

qilinishi, shubhasiz Osiyo mintaqasida xotin-qizlarning barcha sohalaridagi to'laqonli ishtirokini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, u xalqlar o'rtasidagi hamjihatlikni kuchaytirish, gender tengligini ta'minlash va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishda parlamentlarning rolini yanada oshirish uchun muhim xalqaro huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Ushbu tashabbus O'zbekistonning gender masalalaridagi faolligini yana bir bor namoyon etib, mamlakatimizning global jarayonlardagi faol ishtirokini ifoda etadi.

IKKINCHIDAN, Milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni faol jalb etib, doimiy muloqotni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Bu borada Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning ta'sis forumini O'zbekistonda o'tkazish taklif qilindi.

Bu tashabbus xalqaro miqyosdagi yoshlar parlamentlari o'rtasida o'zaro aloqa va hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro fikr almashish, demokratik qadriyatlarga sodiqlikni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Tajriba asosida bunday global platformaning tashkil etilishi yoshlar parlamentlari faoliyatida xalqaro miqyosda ijobiy natijalarga sabab bo'lishi mumkin.

UCHINCHIDAN, har bir insonning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqini ta'minlash, xalqaro standart va me'yorlar asosida sifatli xizmat ko'rsatish dolzarbligi hamda kambag'allikni qisqartirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, joriy yil sentabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan kambag'allikni qisqartirishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishida parlamentlar vakillarining faol ishtirok etishi muhimligi ta'kidlandi.

Mazkur tadbir nafaqat O'zbekistonda ijtimoiy siyosatni yuritishdagi ilg'or tajribalarni namoyon etish, balki turli mamlakatlar parlamentlari o'rtasida kambag'allikni bartaraf etish bo'yicha amaliy yondashuvlar va qonunchilik tajribalarini o'rtoqlashish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda kambag'allikni qisqartirish masalasi global ahamiyat kasb etmoqda va uning yechimida parlamentlarning roli tobora ortib borayotir. Shu sababli O'zbekistonda bo'lib o'tadigan mazkur tadbir xalqaro miqyosda ijtimoiy adolat, tenglik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'lishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning barchasi Parlamentlararo Ittifoqning Strategiyasi maqsadlariga to'la mos ekaniga dunyo hamjamiyatining nufuzli vakillari alohida urg'u berishdi. Mazkur tashabbuslar xalqaro miqyosda parlamentlar o'rtasidagi muloqotni yanada kengaytirish, milliy manfaatlar rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi yondashuvlarni ilgari surish hamda jahon hamjamiyatida o'zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan yondashuv va tashabbuslar Parlamentlararo Ittifoqning mazkur tarixiy tadbiri – Toshkent deklaratsiyasida o'z ifodasini topadi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz tomonidan olg'a surilgan tashabbuslarning xalqaro doirada e'tirof etilayotganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Feruza MUHIDDINOVA,
Toshkent davlat
yuridik universiteti professori



Xalqaro konferensiya



TEMURIYLAR HARBIY SAN'ATI —

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida hamkor tashkilotlar hamkorligida "Amir Temur va Temuriylar davri harbiy san'ati: lashkarining ma'naviy-axloqiy va jangovar tayyorgarligi masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman bo'lib o'tdi.



Unda xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan harbiy attashelari, taniqli olimlar, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va oliy ta'lim muassasalarining akademik va professorlari, Qurolli Kuchlar akademiyasi professor-o'qituvchilari, mamlakatimiz oliy harbiy ta'lim muassasalaridan harbiy tarix bo'yicha yetuk mutaxassislar, kinoijodkorlar, faxriylar va yoshlar, shuningdek ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy

maqsadi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida tarixiy merosimizga, xususan Temuriylar davri harbiy san'atiga bo'lgan e'tiborni mustahkamlash, buyuk davlat arbobi va harbiy strateg Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy tashkilotchilik, armiyani tartib-intizom asosida shakllantirish borasidagi tajribasini chuqur o'rganish, uni Yangi O'zbekiston armiyasi safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar ma'naviyatiga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratishdan iborat.

Konferensiyaning O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov ochib berar ekan, sohibqiron Amir Temurning yuksak harbiy san'ati, Yangi O'zbekiston milliy armiyasining chinakam kuch-qudratini shakllantirishda, qo'rqmas

va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhni oshirishda, ularni har qanday qiyinchilik va sinovlarga chidamli hamda matonatli etib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng O'zbekiston fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, Oliy Majlis Senati a'zosi, tarix fanlari doktori, akademik Azamat Ziyo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi shu'ba mudiri, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zosi, siyosiy fanlar doktori, professor Saidxon Saidolimov anjuman ishtirokchilarini qutlar ekan, bugungi konferensiyaning ahamiyati, Temuriylar davrining dunyo va mamlakatimiz hayotida tutgan o'rni borasidagi qimmatli mulohazalarini bildirib o'tdi.



OLIMLAR NIGOHIDA



Konferensiyaning asosiy qismida taniqli olimlar – O'zbekiston fanlar akademiyasi vise-prezidenti, tarix fanlari doktori, professor Bahrom Abduhalimov, Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari doktori, professor Xurshid Fayziyev, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori, professor Otabek Hasanov Amir Temur va Temuriylar davri harbiy san'atiga doir asarlar va ularning o'rganilishi, o'sha davrdagi harbiy-siyosiy vaziyat, vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tayyorgarlik masalalari borasidagi ilmiy-tahliliy ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Konferensiyaning ikkinchi qismi ham bir-biridan qiziqarli ma'ruzalarga, mulohazalarga

boy bo'ldi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali, tarix fanlari doktori, professor Temur Shirinov, tarix fanlari doktori, professor Jumaboy Rahimov va qator taniqli temurshunos olimlar Amir Temurning jang strategiyasi, Temuriylar qo'shinida harbiy tartib-intizom masalalarini chuqur tahlil qilgan holda ushbu boy merosni bugungi harbiy ta'lim va tarbiya tizimining ajralmas qismiga aylantirish lozimligiga alohida urg'u berib o'tdi.

Konferensiya orqali Temuriylar davrining harbiy tajribasini xolis o'rganish, shuningdek ushbu tarixiy boylikni zamonaviy mudofaa va xavfsizlik tizimidagi konsepsiyalar bilan uyg'unlashtirish borasida ham muhim takliflar ilgari surildi.

Bunday yirik xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning o'tkazilishi nafaqat Amir Temur harbiy san'atini ilmiy jihatdan tadqiq etish, balki

O'zbekistonning tarixiy merosini jahon miqyosida tanitishda ham muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Konferensiyaning badiiy qismida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli, "Turon" harbiy teatri, Mudofaa vazirligi qo'mondonligiga qarashli harbiy xizmatchilar hamda Mudofaa vazirligi Alohida ko'rgazmali-namunali harbiy orkestr ijodkorlari tomonidan tayyorlangan badiiy-ijodiy dasturlar davraga jangovar ruh bag'ishlab, mehmonlarning davomiy olqishlariga sazovor bo'ldi.

**Kapitan
Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"**

O'quv-uslubiy yig'in

SOHA MUTAXASSISLARINING TAJRIBASI OSHIRILDI

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug harbiy qism va muassasalari negizida Mudofaa vazirligi harbiy okruglar, harbiy qism va muassasalarning avtomobil xizmati boshliqlari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in bo'lib o'tdi.



Qo'shinlardagi avtomobil texnikalarning doimiy jangovar shay va soz holatda ushlab turilishini ta'minlash, har xil ob-havo va hududlarda ishlatishning o'ziga xos bo'lgan tomonlarini inobatga olish, ularni yetarlicha parvarishlash katta kuch, sarf-xarajat va imkoniyatlarni talab etadi. Shu bois yig'inda qo'shinlarda mavjud bo'lgan avtomobil texnikalariga yetarli darajada e'tibor qaratish, ularga o'z vaqtida texnik

xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini olib borishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash joizki, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda harbiy qism va muassasalardagi avtomobil texnikalarini saqlash parklari, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini olib borish joylari, ehtiyot qismlarini saqlash omborlarida

kapital ta'mirlash ishlari olib borilib, zamonaviy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ushbu o'quv-uslubiy yig'in avtomobil texnikalarining hisobini to'g'ri yuritish, ekspluatatsiya qilish, saqlash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha mas'ullarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmasini oshirish hamda xizmat samaradorligini yuksaltirish maqsadida tashkil etildi.

Mudofaa vazirining o'rinbosari polkovnik Alisher Norboyev rahbarligida o'tgan o'quv-uslubiy yig'inda vazirlik qo'shinlarida 2024/2025-o'quv yili uchun avtotexnik ta'minoti yo'nalishi bo'yicha hisobotlar tinglanib, yangi o'quv yiliga rejalar belgilandi.

Yig'inda qo'shinlarda avtotexnik ta'minotini tashkillashtirishga mas'ul bo'lgan ofitserlarning kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalari sinovdan o'tkazilib, ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi ko'rib chiqildi. Avtomobil texnikalarini ta'mirlash va modernizatsiya qilish bo'yicha soha vakillarining taklif va tavsiyalari o'rganilib, ularning ahamiyati va istiqboldagi samarasi tahlil etildi.

Asosiy e'tibor mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish ishlariga qaratilib, ularning sifatli hamda yuksak mas'uliyat bilan tashkil etilishiga ko'rsatmalar berildi.

Ko'rgazmali mashg'ulot

ILK BILIM VA KO'NIKMA BOYITILDI

2025-yilda muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan askarlarni milliy armiyamizda foydalaniladigan qurol-aslahalar, jangovar va harbiy texnikalar, harbiy xizmatchilarga belgilangan ta'minot me'yorlari bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Nukus garnizonidagi harbiy qismlardan birida ko'rgazmali o'quv mashg'uloti tashkil etildi.



Tashkil etilgan 18 ta o'quv nuqtasida tajribali ofitser va serjantlardan iborat mashg'ulot rahbarlari askarlarga o'qotar qurollar, jangovar, harbiy va maxsus texnikalar, aloqa vositalari va boshqalarning vazifasi, qo'llanilishi hamda

ulardan foydalanilganda xavfsizlik qoidalariga amal qilish bo'yicha mashg'ulotlarni olib bordi.

Mashg'ulotda dala sharoitida ovqat tayyorlash uchun jihozlar, harbiy xizmatchilarga belgilangan oziq-ovqat va kiyim-kechak ta'minoti me'yorlari, aloqa, tibbiy

yordam ko'rsatish texnika va vositalari, muhandislik qurol va anjomlari haqida batafsil ma'lumotlar yetkazildi.

Asosiy maqsad bir yil davomida muddatli harbiy xizmatni o'taydigan yigitlarning harbiy soha bo'yicha bilimlarini oshirish, ularni

qurol-aslaha va jangovar texnikalar bilan tanishtirish hamda dastlabki harbiy ko'nikmalarini boyitishdan iborat.

Zamonaviy harbiy qurol-aslaha va texnikalar bilan tanishuv yurt himoyasiga shaylangan yoshlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Chegara qo'shinlarida



Davlatimiz chegaralari nafaqat tekisliklar, balki piyoda va avtotransport vositalarida harakatlanish qiyin bo'lgan qir-adirli, qum barxanli hamda tog'li hududlarni ham kesib o'tadi. Albatta, bunday nuqtalarda davlat chegarasini nazorat qilish birmuncha qiyinchiliklar tug'dirgani sababli sarhadlarimiz posbonlaridan yuqori bilim, puxta ko'nikma va doimiy tayyorgarlikni talab etadi.



YUQORI BILIM, PUXTA KO'NIKMA – MUVAFFAQIYAT OMILI

Zero ulkan toshlar, katta qoyalar, tog' relyefining o'zgaruvchanligi, o'tish qiyin bo'lgan to'siqlarning mavjudligi va yo'llar sonining cheklanganiga moslashish hamda ana shunday sharoitlarda jangovar xizmatni olib borish, shaxsiy tarkibning jismoniy va ruhiy holatiga, ularning tabiiy qiyinchiliklarni yengib o'ta olish, yuksak kasbiy tayyorgarlik hamda ekstremal sharoitlarni to'g'ri baholay olish qobiliyatiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Shu bois Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining tog' tayyorgarligiga oid bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish, ularning tog'li hududlarda jangovar harakatlarni olib borish yuzasidan mahorat va tajribalarini mustahkamlashga erishishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xususan, Mudofaa vazirligi "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv mashqlar markazida tashkil etilgan navbatdagi "Mutaxassislik" o'quv kurslarida ham maxsus bo'linmalarda xizmat qilayotgan sarhadlarimiz posbonlari uchun markazning tajribali mutaxassislari tomonidan tog' tayyorgarligi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borildi.

Qulay infratuzilma, yangilangan o'quv-moddii baza va barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan ushbu markazda harbiy xizmatchilar real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan ko'rgazmali o'quv mashqlari hamda tog'da harakatlanish jarayonida shaxsiy va guruh anjomlaridan to'g'ri foydalanish, tik qoyalarga chiqib-tushish, tor ko'priklardan o'tish, qoyadan qoyaga arqonlar yordamida ko'chish, tog' sharoitida yashovchanlik, maxsus taktika va otish tayyorgarligi, shuningdek yaradorlarni evakuatsiya qilish



mashqlarini bajarish davomida, o'z bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash imkoniga ega bo'ldilar.

– Ob-havoning har qanday sharoitida, ayniqsa tizza bo'yi qorda olib boriladigan bunday tayyorgarlik jarayonlari o'g'lonlarimizning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi, matonati-yu, irodasini jiddiy sinovdan o'tkazadi. Ular topografiya, taktika, tibbiy tayyorgarlik kabi harbiy fanlarni puxta o'zlashtirish barobarida tog' ilmidan ham xabardor bo'lib, jangovar sharoitlarda tabiatning nozik unsurlaridan ustomonlik bilan foydalanish tajribalarini ham shakllantiradi, – deydi polkovnik Odiljon Muhammedov.

O'quv kursi yakunida barcha murakkab vazifalarni a'lo darajada uddalagan mashg'ulot ishtirokchilariga maxsus sertifikatlar topshirildi.

– Ta'kidlash kerakki, nazariy va amaliy o'quv joylaridagi mashg'ulotlar mutlaqo yangi ko'rinishda tashkil etildi. Har birimizning natijalarimiz mutaxassislar tomonidan doimiy tahlil qilinib, bundan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihatlar xususida tegishli tavsiyalar berib borildi, – deydi kichik serjant Islomjon Qurbonov.

Eng muhimi, mazkur o'quv kursida tahsil olgan mutaxassis-yo'riqchilarimiz kelgusida o'zlari egallagan bilim va ko'nikmalarini safdoshlari va izdoshlariga ham o'rgatib, sarhadlarimiz himoyasining yanada mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shishlariga ishonchimiz komil.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun



AMIR TEMURNING QAL'ALARNI EGALLASH MAHORATI

Jahon mudofaa istehkomchiligi tarixida qal'alar o'ta muhim bo'g'in vazifasini bajarib kelgan. Qal'alar davlat chegara chiziqlarida va siyosiy markazlarga olib boruvchi yo'llarda tashqi xavflardan himoyalovchi tayanch hisoblangan. Ularning tuzilishi, mustahkamligi, qurilish uslubi hududning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda turlicha bo'lgan. Qal'alar tarhi va mudofaa rejasi qanchalik puxta tuzilgan bo'lsa, yov hujumi uchun shu darajada jiddiy muammo tug'dirgan.

Amir Temur ham deyarli barcha harbiy yurishlar chog'ida qal'alar qarshiligiga to'qnash kelgan. Ularni egallash yurish natijasini hal qilgan. Bu yetuk harbiy mahorat bilan birga chuqur muhandislik ilmini talab qilgan. Sahibqironning qal'a va shaharlar qamali, mudofaa devorlarini buzib kirish san'ati haqida yozma manbalarda yetarlicha ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofiz Abro', Abdurazzoq Samarqandiy kabi tarixchilarning asarlarida mazkur masalada batafsil va ishonchli voqealar aks etgan.

Ushbu manbalar tahliliga ko'ra, Amir Temur qal'alarni egallashning dastlabki tashkiliy bosqichida quyidagi o'ziga xos harbiy siyosatni amalga oshirgan:

MA'LUMOT YIG'ISH VA JOSUSLIK. Josuslar orqali hudud tabiiy xususiyati, mudofaa chiziqlari, qal'aning zaif va kuchli tomonlari aniqlangan. Bu ma'lumotlar hujum rejalarini tuzishda o'ta muhim bo'lgan.

QAL'ANI O'RAB OLISH. Qal'alar dushman ruhiy tushkunlikka tushishi, suvsizlik va oziq-ovqat tanqisligi tufayli, holdan toygunga qadar qamalda ushlab turilgan.

QO'SHINNI JOYLASHTIRISH. Qo'shin bo'linmalari vazifasiga ko'ra, puxta reja va aniq maqsadlar asosida, jangovar vaziyatga mos ravishda atrofga joylashtirilgan. Qo'shinning maxsus qismi ortdan kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy yordam kuchiga qarshi himoyaga qo'yilgan.

MUZOKARALAR. Dushman huzuriga maxsus choparlar jo'natilib, talab va shartlar yetkazilgan. Behuda vayronagarchilik va qurbonlarning oldini olish uchun taslim bo'lishga hamda kelishuvga chaqirilgan.

Muzokaralar kutilgan natijani bermagach, hujumga o'tilgan. Qal'ani egallash vaqtida quyidagi harbiy usullar qo'llanilgan:

– jangovar musiqa cholg'ulari (*nog'ora, dovul, karnay-surnay*)larning baland sadosi ostida hujumga o'tish. Bu jangchilarga shijoat bag'ishlash va dushmani vahimaga tushirishga xizmat qilgan.

– Qal'a atrofini o'rab olgan xandaq (*jarlar*)ni xashak va yog'ochlar bilan to'ldirish orqali kechib o'tish;

– yerosti yo'li qazish orqali ichkariga kirish;

– devor ostini kovlab, asos qismiga o't qo'yish yoki suv bilan xaxlatish orqali yiqitish;

– asosiy darvozani qo'porib olish orqali ichkariga kirish.

Ta'kidlash joizki, tog' qoyalari, balandliklarda joylashgan qal'alarni egallash alohida mahorat va usullarga zarurat tug'dirgan. Ularning yuqorida joylashgani va baland devorlar bilan o'ralgani ma'lum miqdorda qurbonlar hamda mashaqqatlar talab qilgan. Bu turdagi qal'alarni egallashda maxsus tashkil etilgan "tog' jangchilari" (*jangchi alpinistlar*) bo'linmasidan foydalanilgan.

AMIR TEMUR QO'SHINI qal'a devorlarini buzishda manjaniq (*tosh va olovli o'qlar otuvchi qurilma*), arroda (*hujum vaqtida qal'a devorini buzishga mo'ljallangan g'ildirakli toshotar qurilma*), ko'chma minoralar, narvonlar, arqon va qo'shimcha xo'jalik asboblardan foydalangan. Turon tarixida ilk bor aynan Temur tomonidan istehkomlarni vayron qiluvchi to'p (*rad*)lar qo'llanilgan.

Manbalarda yuqoridagi harbiy usul (*taktika*)lar bir qator qal'alarning egallanishi misolida batafsil yoritilgan. Ushbu qal'alar nomi, joylashuvi, tuzilishi

va qanday tarzda buzib kirilgani kunma-kun, voqealar ketma-ketligida bayon qilingan.

Amir Temurning harbiy va yuksak muhandislik mahoratini dalillash uchun quyidagi ba'zi shahar-qal'alar va ularning egallanish jarayonini keltirib o'tish o'rinli.

HIROT QAL'ASINING

EGALLANISHI. Tarixchi Hofiz Abro'ning yozishicha, hujum vaqtida shaharning beshta darvozasi bo'lgan. Har bir darvoza temir bilan qoplangan va bir nechta temir eshiklari bo'lgan. Darvozalar oralig'i bir qism masofada tuya bo'yni shaklida burma ko'rinishida qurilgan. Har qaysi tomondagi devor uzunligi 2000 gazni (*bir gaz o'rtacha 71 sm ga teng*) tashkil etgan. Asosiy devorning fosilasi (*qal'a mudofaa devori oldidan qurilgan qo'shimcha tashqi devor, oraliq joy*) ham bo'lgan. Shahar devori xandaq (*jar*) bilan o'ralib, osma ko'pri bilan bog'langan. Jarning tashqi aylanasi bir farsangni (*uzunlik o'lchovi bir farsang 6 km ga teng*) tashkil etgan. Hujum vaqtida darvozalar qo'porib olingan. Devorlar tagigacha buzib yuborilgan. Qo'porib olingan darvozalar olib ketilgan va Kesh (*Shahrisabz*) shahrining eski darvozalari o'miga qo'yilgan. Bu ma'lumot Amir Temurning yuqorida keltirilgan darvozalarni qo'porib olish usuliga misol bo'ladi. Shuningdek, egallangan hududning harbiy istehkomchilik tajribalaridan unumli foydalanganini ko'rsatadi.

KEMOX QAL'ASINING OLINISHI.

Ushbu qal'a Frot daryosi bo'yi (*endigi Iroq*)da bo'lgan. Qal'a mustahkamligi bilan mashhur, devorlari baland, kirish-chiqish imkonsiz bo'lgan. O'n kun davomida qurshovda ushlab turilgan. O'ninchi kuni karnay-surnay, nog'ora-dovullarning vahimali ovozi ostida hujumga o'tilgan. Devorni buzishda arroda va manjaniqlar qo'llanilgan. Qal'a qisqa vaqt ichida buzib kirilgan va egallangan.

TAKRIT (TIKRIT) QAL'ASINING

OLINISHI. Mazkur istehkom Iroqning Bag'dod shahridan 140 kilometr masofada joylashgan. Qal'aning mudofaasi kuchliligi to'g'risida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida quyidagi ta'riflar o'rin olgan:

– U qal'a g'oyatda mustahkam edi.

Uning mahkamligi tavsifida til qisqa, istehkom tasavvurida aql hayron, mustahkamlikda jahonga mashhur edi. Turli qissa va xabarlarda "Qal'ayi Salosil" (*zanjirli qal'a*) deb tavsif etilgan edi. Uning tashqi va ichki qo'rg'onlari mavjud bo'lgan. Qal'a olinishidan oldin Amir Temur uning voliysi (*hokimi*) Amir Hasan bilan muzokara qilishga harakat qiladi. Agar u taslim bo'lsa, beminnat marhamat ko'rsatishini ma'lum qiladi. Amir Hasan ushbu taklifga ishonchsizlik bildirib, qarshilikni davom

ettiradi. Shundan so'ng qal'aga haqiqiy hujum boshlanadi. Qal'a devori arroda va manjaniqlar bilan o'qqa tutiladi. Qal'a tashqi qo'rg'onining devori tagidan naqlar (*lahm, qal'a devori tagidan kovlangan o'ra, yo'l*) kovlanadi. Kechasi qo'rg'on devorining asosiy burji (*atrofni kuzatish, dushmanga qarshi zarba berish uchun mo'ljallangan mudofaa qurilmasi*) yiqitiladi. Qal'a mudofaachilari naqlarni sezib qolib, ularning og'zini berkitadilar. Buni payqagan Amir Temur barcha naqlarga o't qo'yishni buyuradi. Natijada mustahkam va bahaybat devorlar yiqilib qal'a egallanadi. Amir Temur qal'a devorining bir qismini saqlab qolishni buyuradi. Bundan maqsad, qal'aning qanchalik mustahkam bo'lgani va uni egallashda yuksak harbiy mahorat va qudrat egasi bo'lish kerakligini namuna sifatida ko'rsatish edi.

BEXASTI QAL'ASINING

OLINISHI. Ushbu qal'a endigi Turkiyaning Bexesni shahri o'rnida bo'lgan. Bexasti baland tog' cho'qqisida joylashgan bo'lib, bahaybat burjlardan iborat mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan edi. Qal'a markazida aylanib tosh otuvchi juda katta manjaniq o'rnatilgan. Ushbu manjaniq bir vaqtning o'zida to'rt tomonga zarba berish imkoniga ega edi. Bu qal'ani uzuk halqasi kabi o'rab olgan Temur qo'shiniga katta muammo tug'dirgan. Shu sababli Amir Temur o'z muhandislariga dushman manjanig'iga bas kela oladigan yanada kattaroq manjaniq yasashni buyuradi. Ushbu manjaniq yordamida dushman manjanig'i bir zarba bilan yakson qilinadi. So'ngra qal'aning to'rt tomonidan naqlar kovlanadi. Naqlar qal'a joylashgan tog' tagini kovak-kovak qilib yuboradi. Ushbu kovaklarga yog'och ustunlar tirab qo'yiladi. Manjaniq zarbasidan so'ng yog'och tirgab qo'yilgan qal'a burjlari qulab vayron bo'lgan. Og'ir janglardan so'ng qal'a to'liq ishg'ol qilingan.

BIRTIS (BIRTVISI) QAL'ASINING

OLINISHI. Mazkur qal'a endigi Gruziya hududida mavjud bo'lgan. Amir Temur yurishlari tarixida duch kelgan eng mustahkam va imkonsiz hisoblangan yagona qal'a edi. Qal'a baland tog' qoyasida joylashgan bo'lib, uning devorlari qoyalarga tutashib ketgan. Temurgacha bo'lgan mashhur sarkardalarning hech biri ushbu qal'ani egallay olmagan. Qal'ada ko'pi bilan bor-yo'g'i 200 gurji jangchilari mavjud bo'lgan. Qal'aga olib boruvchi tog' yo'llari nihoyatda tor va atrofi 100-150 gaz balandlikda toshlar bilan ko'tarilgan edi. Qal'aning yana bir tashqi darvozasi bo'lib, u alohida qal'a darajasida bo'lgan. Qal'a ichida suv bilan ta'minlovchi quduq, g'alla va ko'p miqdorda oziq-ovqat zaxirasi bo'lgan. Tashqi atrofda esa aksincha, birorta ham suv va ozuqa manbasi yo'q edi. Bu qal'ani qurshovda ushlab turish va qo'shinni ta'minlash masalasida qiyinchilik tug'dirgan. Temur atrofidagi ulamolar va sarkardalar ushbu qal'ani ishg'ol qilishga ko'zlari yetmagan. Ammo Amir Temur o'z harbiy mahorati tufayli merkit urug'idan bo'lgan tog' jangchilari orqali qal'ani egallash uddasidan chiqqan.

AMIR TEMUR shu yo'sinda turli mintaqalarda, jumladan: Batnayr, Mirt (*Hindiston*), Antob, Avnik, Izmir, Hovik Fo'cha (*Turkiya*), Feruzko'h (*Eron*) kabi o'nlab qal'alarni o'z g'alabasi hisobiga kiritgan.

To'xtam o'rnida shuni ta'kidlash mumkin, Amir Temur shahar va qal'alarni egallash oldidan puxta reja va harbiy usullarni ishlab chiqqan. Qurbonlar va buzg'unchilikning oldini olish uchun muzokara yo'lini tutgan. U o'z chog'ining yuksak harbiy-muhandislik bilimlariga ega bo'lgan tengsiz Turon sarkardasi edi.

Elyor XOJAMBERDIYEV,
O'zbekiston fanlar akademiyasi
Tarix instituti kichik
ilmiy xodimi

10-aprel – Abdulla Qodiriy tavallud topgan kun



SO‘ZDAN NAJOT ISTAB

Ziyolilar milliy ozodlik harakati yo‘lida vaqtli matbuot orqali oynoma va kunnomalarda ma‘rifiy targ‘ibot ishlarini olib borishdi. Ziyolilar uchun ma‘rifat va mafkura kurash maydoniga aylandi. Kurash zamirida milliy ozodlik umidi, hurriyat tuyg‘usi, din qayg‘usi yotardi. O‘zbek matbuoti shakllanishida salmoqli o‘rin egallagan Abdulla Qodiriy millat tarixining eng murakkab va kurashlarga boy bir davrida ijod bilan shug‘ullandi. **Milliy matbuot takomilini Abdulla Qodiriy ijodisiz bir butunlikda tasavvur qilish qiyin.** Yozuvchining publitsistik ijodi jadid matbuotining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ikki rus bosqini guvohi bo‘lgan adib Turkiston ozodligi va mustaqilligi yo‘lida haqiqatparvar jasoratli jurnalist sifatida faoliyat yuritdi.

Ziyolilar, birinchi navbatda, ma‘rifiy islohot tarafdori bo‘lib barcha jabhalarda amaliy faoliyat olib borishdi. Islohot g‘oyasi Abdulla Qodiriy ijodiy konsepsiyasining o‘q ildizini tashkil qiladi. Ijodiy faoliyatida ham ta‘lim va tarbiyada isloh masalasi yetakchi muammo sifatida ahamiyat kasb etdi.

XX ASR AVVALIDA o‘zbek matbuotida e‘lon qilingan materiallarni kuzatsangiz, dastlab ijod erkinligi, jiddiy keskin tanqidiy ruh borligiga guvoh bo‘lamiz. Oynoma va kunnomalarda qizil inqilob sahnasi ortidagi siyosiy o‘yinlarni fosh etish, ta‘limni isloh etish, kadrlar va milliy armiyani shakllantirish masalasi jiddiy va haqqoniy yoritib berilgan. Hukumat talablarini milliy manfaat kesimi ostida talqin va tatbiq etish masalasi ziyolilarimiz uchun eng asosiy maqsadga aylanib ulgurgan edi. Siyosiy jihatdan hushyorlikni qo‘ldan bermagan yozuvchi fikrlarini ifodalashda ijtimoiy satiradan samarali foydalanishga muvaffaq bo‘ldi. Ijodkor insoniy qadriyatlarga daxl qilingan zamonda Haqdan qaytmaslik va to‘g‘risini aytish, adolatni himoya qilish hamda imon bilan qolishni afzal bildi. So‘z orqali akbari jihod qildi.

Abdulla Qodiriyning adabiy merosi qator tur va janrlarida yaratilgan asarlardan iborat. Afsuski, bugun ko‘pchilik kitobxon yozuvchining ikki mashhur asari – “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarinigina yaxshi biladi. Holbuki, Abdulla Qodiriy bu asarlaridan tashqari talaygina hajviyalar, hikoya va ocherklar, adabiy va publitsistik maqolalar muallifi hamdir. Yozuvchining yirik janrdagi asarlarida muallif pozitsiyasi, estetik konsepsiyasini ilg‘ash unchalik oson emas. Ammo uning kichik asarlarida muallif shaxsining bizga hali ochilmagan qirralari ko‘zga tashlanadi. Muallifning kichik asarlari bilan yaqindan tanishgan sayin uning shaxsiyatidagi o‘ziga xosliklar, xarakteridagi yetakchi belgilar, aniqrog‘i muallif ruhini his qilasiz.

Abdulla Qodiriyning ijodiy merosini mavzu va muammosiga ko‘ra, bir qancha yo‘nalishlarga ajratib o‘rganish mumkin. **Uning kichik janrdagi asarlari turli mavzuda bitilgan:**

- ijtimoiy-siyosiy;
- maorif islohoti;
- teatr san‘ati;
- qishloq hayoti;
- oziq-ovqat muammosi;
- diniy jaholatga qarshi;
- matbuot muammosi;
- xotin-qizlar ozodligi.

ABDULLA QODIRIYNING dastlabki ijod namunalari sanalgan she‘r va dramasida bid‘atga aylangan urf-odatlardan qutulish, to‘y, uloq, qimorbozlik, ichkilikbozlik, xotinbozlik kabi illatlarga barham berish, jaholatga qarshi kurashish masalasi ilgari suriladi. Muallif yangi usul maktablarini ko‘paytirish, unda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham o‘rgatish orqali millatni g‘aflatdan uyg‘otish mumkin deb biladi. Ana shu ruhda asarlarda shariatda belgilanmagan tartiblarga ergashish, bid‘at va xurofotga berilish ma‘naviy inqirozga olib kelishi ochib berilgan.

Abdulla Qodiriyning jurnalistik ijodi o‘zbek matbuotining shakllanish jarayoni, mavzu ko‘lami, jamiyat hayotidagi madaniy-ma‘rifiy harakatlar, adabiy-estetik omillar, tarixiy hodisalar haqida ma‘lumot berishi bilan xarakterlidir. A. Qodiriy, avvalo, jadid g‘oyalari ta‘sirida adabiyot maydoniga kirib keldi va dastlabki ijodiy namunalarda ma‘rifat targ‘ibotchisi sifatida bo‘y ko‘rsatadi.

Yozuvchining dastlabki ijodiy namunalari: she‘r va dramalarida jadid islohotparvarligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ma‘rifatga targ‘ib etish, jaholatga qarshi turish asosiy maqsad sifatida ifodasini topadi.

Yozuvchi ziyoli sifatida millat boshiga tushgan musibat qamrovini, ko‘lami va oqibatini boshqalarga nisbatan chuqurroq anglaydi, o‘zining nochorligidan o‘kinadi. 1917-yili “Najot” “Shodmarg” (*kichik felyeton*)da “shu zolim hukumat ish boshida turar bo‘lsa, tez vaqtlarda musulmonlarning inqirozga yuz tutuvlari” mumkinligini kinoya orqali yozsa, “Saylovmi, bosqinchilikmi” (*Aynan*) nomli maqolasida saylov jarayonidagi siyosiy o‘yinlarni fosh qiladi.

Yozuvchining publitsistik ruhda asarlari sarlavhasidan keyin kichik felyeton, kulgilik, hangoma, kichkina hangoma, kabi maqolaning janrini belgilovchi va mazmuniga tegishli qaydlar beriladi. “Aynan” deb izoh berilgan maqolalar jiddiy mavzuga bag‘ishlanib, muammo kinoyalarsiz ochiq-oshkora tarzda tanqid qilinadi.

YOZUVCHINING “Nega kim?”, “Bozor surishtirmaydir”, “Kula-kula o‘lasan”, “Haqiqat ochib so‘zlashdadir”, “Matbuot”, “Davosiz dardlar” kabi maqolalarida jamiyat hayotidagi muammolar fosh etiladi. “Tilak” nomli maqolasi adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan. Maqola 1923-yilda yozilgan bo‘lib, yozuvchi zamondoshlarini bayram bahonasida tanqid qiladi. Maqolada qo‘llangan uslubga ko‘ra, yozuvchi o‘zgalar ustidan bepisand kulgandek, nomlari tilga olingan shaxslarni obro‘sizlantirgandek taassurot qoldiradi. Yozuvchiga tashqaridan qaraganda, kibr-havo, manmanlikka o‘xshash holat borligi sabab ko‘pchilik talqinda chalg‘ib biryozlamalikka yo‘l qo‘yadi. Ammo maqola mazmuniga chuqurroq qaralsa, muallif shaxsiy g‘araz emas, balki millat manfaati yo‘lida haqiqatni ochiq aytishni lozim deb bilganiga guvoh bo‘lamiz.

“Hozirgi shoir va adiblarimizdan Fitratga insof, Elbekka ilhom, Cho‘lponga jinnilik, G‘ozig‘a to‘zim, Sanjarga yalqovlik, Hoji Muinga “Samarqandda chiqqan asarlar”, G‘ulom Zafariyga “Halimaning kayfidan hushyorliq, Sadriddin Ayniyga “Buxoro jallodlari”, A. Sa‘diyga domlaliq uchun “Imom G‘azzoliy bilan Yassaviy”...” deya o‘sha davrning faol ijodkorlarni nomma-nom sanaydi. Har bir shaxsga nisbatan hajv yo‘li bilan do‘stona aytilgan tilaklar aslida hayot haqiqati bo‘lib, ularni muallif so‘z iplariga tizadi. Adib ularni shunchaki ayblamoqchi

emas, ularning muhimdan nomuhimni ajratib olmayotgani va asl maqsaddan chalg‘iyotganiga ishora qiladi. Qolaversa, adib beg‘araz, haqiqatni yashirmasdan, munofiqlik qilmasdan fikrlarini matbuot orqali aytishni ma‘qul ko‘rgan.

O‘sha davr matbuotiga e‘tibor qilinsa, bunday munosabat shakli o‘sha davrda odatiy holga aylanib ulgurgan, jurnalistlar bir birini ayamasdan tanqid qilishgan. Buning o‘z sabablari bo‘lib, voqelikka davr konteksti asosida yondashilsa, vaziyat oydinlashadi. Maqolada yozuvchi 10 banddan iborat davr muammolari bilan bog‘liq orzu istagini bayon qilgan. “Yuzdan besh foizini tashkil etkan o‘rus og‘a-inilarning “Pravda”lari 10 mingga yetkanda, 95 foizlik o‘zbeklarning “Turkiston”lari 8 mingdan 3 mingga tushib qoldi deb “Turkiston”dagi og‘a-inilar g‘uvrana-zorlana boshladilar. “Turkiston”ni 8 mingta emas, 80 mingga yetkuzish uchun eng oddiy, eng abjaq bir chora bor”, yoki “O‘lka va Toshkand xabarleri o‘rniga, “Aldarko‘sa” hikoyalariidan”, “Nikolay davrida turkistonliklar temiryo‘l cho‘chqalaridan qanday turtilgan-surtilgan bo‘lsalar, 23 yilda ham undan battarroq turtila bersunlar”. Yozuvchi tilga olgan har bir tilakda millatni inqiroz tomon yetaklaydigan omillar ochib beriladi. “Biz kim va nimalardan qo‘rqamiz” maqolasida ifoda tarzi yanada keskinlashadi. “Mustamlakachi achchig‘langan chog‘ida sirining ochilishidan qo‘rqadir”, deya hukumatining asl qiyofasini ochib tashlaydi.

ABDULLA QODIRIY ma‘rifat, diniy e‘tiqod, muqaddas qadriyatlarga ehtirom millatni saqlab qolishning eng ishonchli vositasi deb hisoblaydi. Jamiyatni faqat ilmiy taraqqiyot, iqtisodiy yuksalish emas, poklik, go‘zal axloq, mustahkam e‘tiqod mustamlakachilik sirtmog‘idan asrashini to‘g‘ri anglaydi. Chunki kuchli e‘tiqodgina insonni hurlikka undaydi, qonunlarga bo‘ysunish, amal va qoidani suiiste‘mol qilmaslikka undaydi.

Shu o‘rinda mavzu bilan aloqador ijodkor shaxsi tushunchasining yozuvchi yashagan o‘tgan asrning 30 yillaridagi ahamiyati haqida to‘xtalishni lozim deb bildik. Bu davrda har bir insonda bo‘ladigan shaxs imkoniyatlari ixtiyordan ketdi. Jur‘atsiz, qo‘rqoq, yolg‘onga beparvo, itoatkor, buyurilganni so‘zsiz bajaradigan ijrochilar jamoasi yuzaga keldi. Shaxs o‘zini yo‘qotishi barobarida erki va mustaqil fikridan ham ayrildi. Fikriy falajlik va adabiy shaxsiyatlar boy berilgan jamiyatda adabiyotning ertasi gumon ostida qolishi tabiiy.

Xususan, shaxsiyat butunligisiz asl san‘atning bo‘lishi mumkin emas, yolg‘on aytishdan tortinmagan va adolatning ko‘ziga tik boqa olmagan lahzalardan shaxsiyat inqirozi boshlanadi. Adabiy shaxsiyatlarining yo‘q qilinishi jamiyatga, madaniyat va adabiyotga jiddiy ta‘sir o‘tkazadi. O‘z ichki mustaqilligiga ega bo‘lmagan yozuvchi ruhi ozod inson qiyofasini tasvirlay oladimi? Yarata olmasa, so‘zning kuchi qayoqqa ketadi? Odamzod hayotida jiddiy ahamiyatga molik falsafiy tushunchalarga adabiyot javob beradi va shunga mas‘ul soha. Yo‘lsizlik va ikkilanish yozuvchilarimiz ruhiyatiga jiddiy ta‘sir o‘tkazdi. Cho‘lpon umididan ayrilgan bo‘lsa, Oybek najotni umidda deb bildi, G‘afur G‘ulom “Shum bola”si singari ayyorlik va quvlik niqobi ostida o‘ziga panoh izladi.

BUYUK SHOIR so‘zdan umr bo‘yi falsafa qidirdi, najot istadi. Shu joydan boshlangan yo‘lsizlik adabiyotimizda chuqur iz qoldirdi, ko‘p ijodkorlarning umri behudaga sarflandi, keyinchalik ham mana shu siyosatning “ijro”chisiga aylangan ayrim “xalq yozuvchisi” bo‘lganlarning talanti shamolga sovurildi. A. Qodiriy Millat va Vatan, Inson taqdiri ko‘ndalang bo‘lganda u vaziyatga Haqiqat nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘ldi.

Sanobar TO‘LAGANOVA,
filologiya fanlari doktori,
adabiyotshunos

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!

“YURTIMIZ POYDEVORINI MUSTAHKAMLASHGA O‘Z HISSANGIZNI QO‘SHING!”



Urush
tegirmonidan
omon chiqib,
salkam bir asrga
teng umr ko'rish
hammaga ham
nasib etavermaydi.
Toshkent viloyatining
Yuqori Chirchiq
tumani, “Birlik” MFY
Navqiron ko'chasi
15-uyda istiqomat
qilib kelayotgan
Ikkinchi jahon
urushi qatnashchisi
Bekseit Baymirzayev
ana shunday
insonlardan biri.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Bekseit otaga ehtirom ko'rsatilib, uning xonadonida mehmon bo'lganlar bir asrdan ko'p umr kechirgan urush faxriysining tetikligidan hayratlangan bo'lsa, ajab emas. Chunki mehmonlarni quchoq ochib kutib olgan otaxonni ko'krigidagi orden, medallarsiz ko'rgan odam 101 yoshni qarshilagan deb o'ylamasdi.

Yuqori Chirchiq tumani mudofaa ishlari bo'limi xodimlari, mahalla faollari hamda tumandagi 24-umumta'lim maktabi o'quvchilaridan iborat guruhning ko'z o'ngida go'yoki 1942-yilda frontga otlangan navqiron yigit gavdalanganday bo'ldi. Mehmonlar Bekseit Baymirzayev xonadoniga kirib kelganda 101 yoshli urush faxriysi ularni bir tomoni keng dalalarga tutashib ketgan hovlisidagi so'rida xursandchilik bilan kutib oldi. Bir piyola choy ustida bugungi osuda hayotimizni ta'minlagan yurtdoshlarimizning g'alabaga qo'shgan jasorati xotirlandi.

– 1942-yili pedagogika bilim yurtida o'qib yurgan kezlirim frontga chaqiruv qog'ozi keldi, – otaxon boshdan kechirganlari haqida xotirlar ekan, barchaning diqqat-e'tibori bir nuqtaga jamlandi. – Avvaliga Kuybishev (hozirgi Samara) shahridagi Serjantlar tayyorlash markazida 3 oylik kursga jo'natishdi. Shundan so'ng 1-Ukraina fronti 164-alohida artilleriya brigadasi tarkibida aloqachi, keyinchalik 82 mm minomyot batalyonida bo'linma komandiri sifatida janglarda qatnashdim. Batalyonimiz Ukraina, Polsha va Chexoslovakiyaning o'nlab shaharlarini ozod qilib, g'alabani 10-may kuni Praga ostonasida kutib olganmiz.

Urush o'z nomi bilan urush. Janglarda ko'plab quroldosh do'stlarimdan ayrildim. Bir necha marta dushmanlarni asirga tushirib kelish uchun jo'natilgan razvedka guruhlarida qatnashdim. Komandirlar tomonidan berilgan ana shu topshiriqlarni bajarish chog'idagi xizmatlarim uchun orden va bir qator medallar bilan taqdirlandim.

Praga ostonasidagi so'nggi jangdan keyin batalyondagi yoshi katta jangchilar o'z uylariga jo'natildi. Men boshqa quroldosh do'stlarim bilan 1 va 2-Uzoq Sharq frontida yapon imperialistlariga qarshi urushda qatnashdim. Janglarning birida bo'linmamiz bilan dushman qo'mondonlik shtabini ishg'ol qildik. Qarshilik ko'rsatish befoydaligi, tepada bizni qo'llab-quvvatlab turgan aviatsiya

Yurtga qaytgandan keyin oila qurib, turmush o'rtog'im Guloyim Zayilova bilan to'rt farzandni voyaga yetkazdik. Ming shukrki, ularning hammasi oliy ma'lumotli. Ha aytgancha, biznikiga kelaverishdagi ikki qavatli maktabga ko'zingiz tushgan bo'lsa kerak. Shu bilim maskanida deyarli 40 yil direktor lavozimida ishladim.

Xonadonimga mehmon bo'lib kelgan o'g'il-qizlarim! Biz ko'rgan kunlar hech qachon sizlarning



hujum qilsa, ko'p qon to'kilishi mumkinligidan cho'chigan yapon askarlari qo'mondonlik shtabining general o'tirgan xonasini ko'rsatib yubordi. O'zini xarakiri qilishga ulgurmagan general ham taslim bo'lishdan boshqa chora topa olmagan...

Qishning qahraton sovug'i, issiq va yomg'irli kunlar, oziq-ovqat tanqisligiga qaramay, dushman ustidan g'alaba qozondik. Ne-ne navqiron yigitlar urush maydonlarida nobud bo'ldi. Ular qatorida ukam, Mamay Baymirzayev ham bor edi. Urushdan keyin ukamning taqdirini so'rab-surishtirganimda, Mamay Stalingrad uchun bo'lgan janglarda halok bo'lganini aniqladim. Yana bir ukam – Tog'ay Baymirzayev menga o'xshab, frontdan eson-omon qaytib kelgan.

boshingizga tushmasin. Tinch-osuda kunlarning qadriga yetib, faqat ilm olish orqali yurtimiz kelajagining poydevorini mustahkamlashda o'z hissangizni qo'shing! Vatan himoyachisi bo'lishga ahd qilgan bo'lg'usi ofitserlar, sizlarga nasihatim shuki – hamisha o'z sevgan kasbingizga sodiq bo'lib, sharaflari kasbingiz ortidan faqat va faqat hurmat-e'tibor toping!

Bekseit Baymirzayev yurtimizga, tinchligimizga, to'kin hayotimizga shukronalik keltirib, yoshlarni shu tarzda duo qildi.

Tadbir yakunida maktab o'quvchilari urush faxriylarining hovlilaridagi obodonlashtirish ishlariga ko'mak berdi.

Asror RO'ZIBOYEV

Qahramonlar nomi barhayot

VATAN

QAYERDAN BOSHLANADI?

Ichimni timdalayotgan bu savol javobini juda ko'p o'yladim. Negadir bu safar Vatan ostonadan boshlanadi, degim yo'q. Vatan qayerdan boshlanadi? O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning "Osmonning oxiri" dostonida "Osmonning oxiri qayerda?" qabilida savol o'rta tashlangandi. Hech kim aniq javob topolgan emas, bu savolga. "Irmoqning oxiri daryo. Daryoning oxiri dengiz. Osmonning esa oxiri yo'q", deydi. Meni o'ylantirayotgan bu savol yuki ko'nglimni sergak torttirdi.

Vatan qayerdan boshlanadi? Samarqandda bo'lgan safarimiz davomida Vatanimiz tichligi yo'lida jon bergan qahramonlarimiz uylarida mehmon bo'ldik. Shu suhbatlar davomida savollarimga javob topgandek bo'ldim. Xulosalarimni esa so'zimning so'ngida aytib o'taman.

Kattaqo'rg'on shahriga yo'lingiz tushgan bo'lsa, shaharga ketaverishdagi ko'chalardan biriga qahramon yigitning nomi berilgan. Peshtaxtada mag'rur turgan suratni ko'rib, ko'zingiz oldida yovlarga boshini egmagan, xalqimiz osoyishtaligi yo'lida mardlaracha jon bergan yigitning siyrati jonlanadi.

"Vatan sendan ajralmoq – mening o'limim, Sen uchun o'lmoq, mening tirikligimdir", suratning tagida Abdurauf Fitratning qalamiga mansub mana shu bitik bor. Go'yo bu misralarni shu yigitning o'zi yurak qoni bilan yozgandek taassurot qoldirdi menda.

Shaharda kimdan borib so'ramang, odamlar uning mardligi, tantiligi haqida yonib gapiradi.

Ulug'bek Barnoyev deyishimiz bilan shu atrofda yurgan hamyurtlarimizdan biri shunday e'tirof etdi: **"Biz farzandlarimizning shu yigitga o'xshashini istaymiz. Uning jasorati, mardligi har bir o'zbek o'g'loniga namuna bo'la oladi"**. Yo'l so'rab yuzlanganimizda esa bizga safardosh bo'lib, qahramonimizning xonadonigacha kuzatib qo'yishdi. Bir necha mahalla narida yashaydigan hamyurtlari e'tirofidan lol bo'lib ketaverdik. Uyining ostonasiga yetganimizda darvozasining burchida osig'liq turgan yurtimiz bayrog'iga ko'zimiz tushib,

ko'nglimizda iftixor tuydik. Biz kelishimizdan xabar topib, ilib qo'yilganmi, degan gumonimni esa shu atrofda yashovchi qo'shnilar bu xonadon ostonasida doim Vatan bayrog'i osig'liq turishini aytib, bartaraf qildi. **Aslida har bir yurak, har bir uyda Vatan bayrog'i hilpirab turishi qanday go'zal.** Xalqimizda "Olmaning tagiga olma tushadi", degan naql bor. Bunday xonadonda tarbiya topgan insonlar Ulug'bek Barnoyevday Vatan uchun jon olib, jon berishga tayyor, shu xalq, shu yurt tinchligini har nedan ustun qo'yadigan yigitni voyaga yetkazmay, yana kimni tarbiyalasin?!

Bizni yoshlari yetmishdan oshgan, yuzidan nur yog'ilib turgan nuroniy otaxon kutib oldi. **Hol-ahvol so'rashganimizdan keyin otaxonning gaplariga quloq tutdik.**

– Alloh menga Ulug'bekni ato qilganda, quvonchim ichimga sig'magan, uni ilk bor qo'limga olganimda, yuzida onamniki singari xoli borligi, kaftlari, barmoqlari otamniki kabi chayir, tug'ilganidayoq barmog'imni mahkam changallab ushlab turgani ko'z oldimda hali-hanuz saqlanib turibdi. Ulug'bekka doim "Ota" deb murojaat qilardim, jilmaygancha yugurib kelib, oyoqlarimga o'tirib olardi.

– Ulug'bek haqida o'ylasam, bir voqea doim yodimga tushaveradi. Maktab yoshlarida bir ustoz bilan ona-bola tutinib, mendan kam yaxshi ko'rmas edi. Ustozining ham Ulug'bekka mehri bo'lakcha edi, **"Shu bolangizni men o'g'il qilib olay"**, deb hol-jonimga qo'ymagan. Kunlardan bir kun bolam yig'lab keldi, "gapir", desam, so'zi tilida turmaydi, "Ketyapti, ona!" degan gapdan nariga o'tolmay, yig'lagani yig'lagan. "Kim ketyapti, aniqroq gapir?" desam, yana ho'ngrab yig'laydi. "Ustozim ketyapti", deganidan keyingina tushundim. Keyin bilsam, muallimi o'z yurtiga – Qrimga ko'chib



ketayotganidan xabar topgan bolam, yaxshi ko'rgan insonini qo'yib yuborishni istamay, yig'lagancha yonimga kelgani shundoq ko'zim o'ngida. Bolamni qanchalar mehr-oqibatli, yaqinlariga, Vataniga sodiq ekanini anglaganman. Ustozi o'quvchilari bilan vidolasharkan, Ulug'bekka yaxshi o'qishini tayinlab, qosh-ko'zidan qayta-qayta o'pib xayrlashgan. Murg'ak ko'ngli bu judolikka chidolmay, gapini yutib yuborgan edi.

Suyukli ustozining to'satdan aytgan bu gaplaridan bolamning yuragi qattiq og'rigandi o'shanda. **"Endi ustozimni ko'rmayman, ona, xuddi sizdek yaxshi ko'rardim, siz bizni hech qachon tashlab ketmang, onalar farzandlarini tashlab ketishlari yomon"**, deb tizzamga boshini qo'ygancha, ko'zlaridan yoshlari duv-duv oqib, ko'ylagimni ho'l qilib yuborgandi. Ertasi kuni men ustozimni poyezdga kuzatgani boraman, deb quvonib yugurib keldi. Ustozining bugun ketishini ko'cha-ko'ydan eshitganmi, joyida turolmay, "Ona, menga sovg'a bering, ustozimga berib yubormoqchiman", deb ko'zlarimga iltimos nazari bilan termilib turdi. "Men hech narsa bermayman, o'zing sandiqni och-da, nimani xohlasang, olib ket", dedim. O'sha sandiqqa yig'gan-terganimni Ulug'bekning to'yiga, deb solib qo'yardim.

Meni ham qo'yarda-qo'ymay o'zi bilan olib ketdi. Vokzalga yetganimizdan so'ng yugurib hamma joydan ustozini qidirishga

tushgan bolamni ko'rib, mening ham ko'zlarimda yosh aylanib, yuzlarimni yuva boshladi. Bolam goh u vagonga, goh bu vagonga kirib, ustozini izlardi. Nor ovozida ustozini chaqirardi. Olisdan "Ulug'bek" degan ovoz keldi. Bolam jon-jahdi bilan ustozni tomon yugurib, mahkam bag'riga bosgancha ketmasligini so'rab, yolvordidi. Bizni ko'rgan hamma yig'ladi. Poyezd qo'zg'alaman deguncha, ustozini bag'ridan qo'yib yubormadi bolam. So'ng ustoz ketayotganda **"Meni unutmang, agar qaytib kelsangiz, biznikida yashang"**, deb yig'lagancha jo'nab ketayotgan poyezdga termilib, ko'rinmay ketgunicha joyida qotib qoldi. Mening shunday oqko'ngil, jasur o'g'lim bor edi, – deb xo'rsinadi Sabohat ona.

O'G'LINGIZ BARHAYOT, DEYMAN ICHIMDA, VATANGA AYLANIB KETGAN O'G'LINGIZ, ONA, DEYA PICHIRLAYMAN.

Bu yurt bor ekan, Ulug'bek Barnoyevday qahramonlar hech qachon o'lmaydi. Yuqorida Vatan qayerdan boshlanadi, degan savolni o'rta tashlagandim, esingizda bo'lsa. O'zimning xulosalarimdan kelib chiqib aytamanki, Vatan yov ko'ziga tik qarab turgan yigitlarning nigohida, ko'ksini dushman o'qi kelib teshgan onda ham zarracha g'ururidan kechmay, ko'ziga tik qarab turgan askarlarning yurak qoni to'kilgan joydan boshlanadi Vatan.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"

KESHDA BOSHLANIB, SABRONDA TUGAGAN JANG

BO'YSUNMAS QAL'A VA QAYSAR JANGCHI

Ko'hna kitoblarda ba'zan Savron yoziladi. Lekin u "Uzoklar hukmdori" filmidagi Sauran qal'asi emas. Bu shahar turk dunyosining behad qadimiy va mo'tabar maskanlaridan biri. Unda elf, hobbit yo trollar yashamaydi. Xalqi o'zini "o'zbek" deb ataydi. U davrlarda ular o'ta jangovor, jasur qavm edi. Unda sodir bo'lgan janglar ham xayolot mahsuli emas, haqiqiydir.

Milodiy 1582-yili shunday janglardan biri bo'layotgandi. Shaharni shayboniy Abdullaxon qo'shini qamal qildi. Xonning bu shaharni vayron qilish niyati yo'q edi. Ammo shahar hokimi, a'yonlar unga bepisand munosabatda bo'ldi va gardankashlik yo'lini tutdi. Oldingi dushmanliklar Abdusattor sultonni murosa yo'lga kiritmadi. Agar 1568-yilgi Kesh urushi bo'lmaganda, bu jang ham balki sodir etilmasdi. Sabron yig'masi Keshda boshlangan urushning oxirgi jangi va Qulbobo Ko'kaldosh uning bosh qahramonlaridan biri edi.

Shahar darvozasi yaqinida yana bir necha suvoriy paydo bo'ldi. Ularning boshlig'i amir Qulbobo Ko'kaldosh himoyachilarga ancha tanish bo'lib qoldi. U har gal darvozaga oldingi safargidan o'n qadamcha yaqinroq kelardi. Har kelishi katta bir qo'shinning shiddatli hujumi bilan barobar bo'layotgandi. Qomatli, salobati har qanday nigohga og'irlik qiladigan, qarashi raqibining o'tini yorib yuborgudek, zarracha qo'rquvi yo'q, go'yo yonida mingta sara pahlavon turgandek sokin... Qal'a darvozasiga har kuni shunday jangchi yaqinlashayotgandi. Shu holatida u shaharni bir o'zi zabt etgudek. Bu - bo'ysunmas Qal'a va qaysar Jangchining to'qnashuvi edi.

BUGUN OXIRGI MUHLAT. Qo'shinning so'nggi hujumi oldidan shaharga baloni boshlab kelgan uchta kallani uchi o'tkir qalamday yo'nilgan uzun tayoqqa ilib, darvoza ro'parasiga qadab qo'yishdi. Baland ovozli suvoriy qamaldagilarga o'tgan va bo'lajak voqealarni bayon qila boshladi. Ular tahdidli edi.

KO'K G'ILDIRAGI

Ubaydullaxon Malik ko'li va G'ijduvon qal'asi yonida Zahiriddin Muhammad Bobur hamda Najmi soniyning yirik qo'shinini butkul tor-mor keltirgach (1512-1513), sultonlar kengashib, bosh

hukmdorlikka Shayboniyxonga otaliq qilgan va yoshi barchadan ulug' Ko'chkunchixonni tanlashdi. U ona tarafdan temuriy edi. Bobolari Samarqand shahrini yana davlat poytaxtiga aylantirdi va obod qildi. 1451-yili Mirzo Abdulla va Mirzo Abu Said o'rtasida bo'lib o'tgan jangdan keyin Abuxayrxon mashhur Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Bibini Sig'noqqa olib ketib, nikohiga kiritgandi. Undan Ko'chkunchixon va Sevinchxojaxon tug'ildi. Toshkent, Andijon va keyinchalik Turkiston viloyati boshqaruvi ham Sevinchxojaxon avlodlari qo'lga o'tgandi.

Ko'chkunchixon soddako'ngil, bag'rikeng, urushga unchalik uquvi yo'qroq odam edi. Goho mahobatli binolardan birortasining ustiga chiqib, adoqsiz tomlari bir-biriga chirmashib ketgan Samarqandning sehrli manzarasini kuzatishni xush ko'rardi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, uning davrida Movarounnahrda ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyat yuksaladi. Bir qancha asarlar turkiyga tarjima qilinadi. Sharafuddin Roqimiy so'ziga ko'ra, u Samarqanddagi "Alayka ko'kaldosh jome masjidi"ni qurdiradi. Ko'chkunchixon hijriy 936-yili ro'bi us-soniyning 25 kuni (1529, 27-dekabr) vafot etadi.

ASLIDA BU PAYTLARDA Shayboniylar davlatining mustahkam tayanchi Ubaydullaxon ibn Mahmud sulton (1486-1540) edi. Uning siyosati va haybati tufayli sultonlar bir-biriga ochiqcha yovlik qilishga botinolmasdi. Ikki guruhga ajralib bo'lgan Shayboniylar o'rtasidagi ziddiyat Ubaydullaxon o'limidan so'ng jadallik bilan ortib ketdi. 1550-1560-yillar oralig'ida aka-uka Ko'chkunchixon va Sevinchxojaxon avlodlari o'rtasida ham oliy hokimiyat uchun kurash qizg'in tus oldi. Siyosat sahnasida yosh, g'ayratli Bobo sulton ibn Navro'z Ahmadxon (*Baroqxon*) va uning raqibi Abdullaxon ibn Iskandarxon paydo bo'ldi. Birzum to'xtamay, donolarga barmog'in tishlatib, ajabtovur tarzda aylanadigan Ko'k g'ildiragi ichiga endi ular kirdi.

O'sha davrda yana bir Bobo sulton ibn Sulton Muhammad ibn Abu Saidxon ibn Ko'chkunchixon ham bor edi. Lekin u Abdullaxonga mazkur qarindoshchilik yovlik qila olmagan.

HALOKAT BURJI

Xusrav sulton o'ta bahodir va vujudi mardonavor xislatlarga to'la kishi edi. Abdullaxon qadrlri amakiyachasini Kesh

viloyatiga hokim etib tayinlaydi. Kunlardan bir kuni u ov qilish uchun qal'adan chiqadi. Qulay fursatni poylab yurgan Abulxayrxon ibn Javonmard Alixon ibn Abu Saidxon ibn Ko'chkunchixon nayrang ishlatib, shaharni qo'lga kiritadi va Xusrav sultonning Xonbibi ismli qizini majburan nikohiga oladi. Bu xunuk hodisa Ko'chkunchixon, Sevinchxojaxon avlodlarining butunlay qirilib ketishini boshlab beradi... Va o'n to'rt yil o'tib, qariyb besh yuz chaqirim narida joylashgan Sabron qal'asida yakunlanadi. Barcha mualliflar Abulxayrni: "Xalqqa zulm yetkazuvchi, o'ta takabbur va dimog'dor, hamisha yomonlik ketidan yuruvchi, fitna qo'zg'ash xayoli bilan yotib-turuvchi podshohzoda edi. Yurtini vayron, xalqni xarob qilishdan hech tap tortmasdi" kabi yo bundan ham tubanroq sifatlar bilan ta'riflaydi. Mutribiy: "Ammo saltanatpanohiy Abulxayr sulton mo'tabar xushta'blardan va shuhrat topgan so'z ustalaridan edi", deya uning mohir shoirigidan ham darak beradi.

Abulxayrning bu qilmishi u va qarindoshlarini falakning halokatli burjiga yetaklab kiradi. Voqeadan xabar topgan Xusrav sulton bir qancha urinishlardan keyin Kesh qal'asini qaytarib oladi. Dushmani "qondosh"likdan tashqari, endi unga kuyov ham edi. Qizining yuz-xotirini qilib, Abulxayr sultonning qochib qolishiga yo'l beradi.

LEKIN KO'P O'TMAY, olchoq kuyov Samarqand sultonlaridan Gadoyxon, Sulton Said sulton, Xudoyberdi sulton, Javonmard Ali sulton, Mahdi sulton; Toshkent xoqonlaridan Bobo sulton, Amin sulton, Do'st Muhammad sulton, Xorazmshoh sulton, Qosim sulton, Tohir sulton; Hori Shodmon podshohlaridan Hoshim sulton, Ja'far sulton, Muzaffar sulton, Abul Qosim sulton, Muhammad Qosim sulton, Muhammad Sharif sultonlar qo'shini bilan yana Kesh qal'asiga keladi.

QISMAT TUSHOVLAGAN OT

Bu otini shayboniy Xusrav sulton mingandi. Hijriy 975-yili rajab oyida (1568-yanvar) Bobo sulton ibn Navro'z Ahmadxon boshchiligidagi mazkur jangtalab guruh Kesh qal'asini ishg'ol qiladi. Xusrav sulton chekinib, bir necha sadoqatli jangchilari qo'rshovida shaharning "Termiz darvoza"sidan (ikkinchi nomi "G'uzor darvoza") qochib chiqadi. Shahardan uncha



uzoq bo'lmagan Duoba mavzesiga yetganda oti balchiqqa yo'liqib, botib qoladi. Sultonni bir amallab loydan chiqarishadi. Xoja Qutayba mozoriga yetganda oti butkul yurmay qo'yadi. Shunda Tosh qushchi otini sultonga beradi. Bir payt Kuchak o'g'lonning oti taqqa to'xtaydi. Bu jamoa otlarini qismat tushovlab qo'ygandi. Qutulishning iloji bo'lmadi. Axiyri ta'qibchilar oxirigacha armonsiz so'qishgan bu jangchilarni asir oldi.

USHBU ACHINARLI HIYOYANI Shayboniylarning Temuriylar tarmog'idagi sultonlar maroq va hayrat bilan tingladi... Bobo sulton xursand bo'ldi va shu zahotiyoy bandilarning boshini kesishga buyruq berdi. Ba'zi muarrixlar u bunga qanoatlanmay, Xusrav sultonning boshini Toshkentga olib ketganini so'zlaydi. Hay attang, bu noma'qul ishni u bekor qildi. "Qismat tushovi" endi uning egari to'g'asiga ilingan edi. Shundan so'ng Abdullaxon bilan qilgan janglarining birortasida g'alaba unga yuzini ko'rsatmadi.

YANGLISH MA'LUMOT

XX asrda Xusrav sulton hikoyasiga: "Duoba - Zomindan 40 km janubda, hozirgi Ayniy qishlog'iga boradigan yo'l ustida, jilg'adan chiqqan ikki suv oralig'ida joylashgan mavze", deb qo'shilgan yanglish izohni olib tashlash uchun voqeadan bir qadam tashqariga chiqamiz. Zomin qayerda-yu, jang qayerda bo'lmoqda? Shahrisabz viloyatida ham bir nechta Duoba qishlog'i bor edi.

VOQEANING KO'CHISHI

XUSRAV SULTON FOJIASI ko'pchilikni karaxt ahvolga solib qo'yadi. Abdullaxon chuqur iztirobda edi. Bunday holat uning a'yonlarida ham kuzatiladi. Ha, raqib beshafqat va qudratli edi. Muarrixlar ta'biricha, "bu mudhish hodisa ro'y bergach" Jon Alibiy, Menglibiy, Nazarbiy, Jonkeldibiy, Turdikaxon, Tanishbiy, Mirza Valijon singari qudratli amirlar Qulbobbo Ko'kaltosh huzuriga kiradi. U Abdullaxonga amirlar hamdardligi va maslahatini yetkazadi... Qo'shin o'midan siljiydi va Kesh qal'asi sari yurish boshlanadi. Bobo sulton yetakchiligidagi yirik lashkar qal'ani Faqir sultonga qoldirib, Samarqand va Miyonkol tomon yo'naladi. Qonli voqea endi boshqa maydonga ko'chadi. U taraflarda ham ba'zi g'aroyib hodisalar ro'y beradi.

SHAYX VA YIRTQICH BO'RI

Abdullaxon va Qulbobbo Ko'kaltosh dushman harakatini qirg'ish uchun Karmina dashtlariga yetib boradi. Bu holdan Qosim shayx Azizon xabar topadi va xonni kutib olish uchun istiqboliga chiqadi. Malik cho'li tarafidan boshyalang, bo'ynida arqon, piyoda... oq nur kabi bir kimsa paydo bo'ladi. U Abdullaxon edi. Ikkisi yuzlashadi. O'rtada fig'onli arslar va ilohiy rozlar kechadi. "Birodarim Xusrav o'ldirildi. Samarqand va Toshkand podshohlariga qarshi turish qo'limdan kelmaydi, ruxsat bersangiz, Ka'bayi sharifga ketsam", deydi xon. Ojizlik izhoridan iborat bu so'zlar Shayx vujudida bemisl

g'ayrat qo'zg'aydi, jubba va dastorini saodatli ul xonga kiydiradi. Uzangikashlik qilib, muborak qo'llari bilan sohibqironni otga mindiradi va: "Qani, ko'raman, kim endi seni bu otdan tushirarkin! Biz sening duogo'yingmiz", deydi. Ko'pam hayallamay, Abdullaxon Samarqandni to'liq tasarrufiga kiritadi.

BU SAHNADA yana Abulxayr sulton paydo bo'ladi. U ham Qosim shayx Azizsonning muridi ekan. Shayx va sulton munosabatlaridan Abdullaxon shubha paydo bo'ladi. Shunda shayx xonga: "Yomonliklar Otasini irodad halqasiga olmasak, uning yirtqich bo'risini tavba zanjirida saqlamasak, qabihlar osoyish po'stinini osonlik bilan tortib oladi", deya tasalli beradi.

O'N TO'RT YIL

"Bobo sulton shavkatli va Rustam shijoatli himmati baland shahriyor edi. G'ayrati zo'ridan Turkiston va Toshkent hukumatiga qanoat qilmasdi. Hamisha Samarqand, Buxoro mamlakatlarini ham egallash orzusi bilan yashardi. Ul yurtlar hokimlariga qarshi janjal qo'zg'ar, otasi Baroqxondek ular ustiga tez-tez lashkar tortib, u o'lkalarni xarobaga aylantirar, aholisini xonavayron qilardi. Jang qilishdan charchamasdi.

Bu sulton turli san'atlarda, ayniqsa musiqa ilmida mukammal mahoratli edi."

Zamondoshlari unga shunday "yorliq" bergan ekan. Bobo sultonning o'zi biror kitob yozdirganda, balki o'zgacharoq tavsif o'qirmidik? Hozircha borini ko'ramiz. Yuqorida aytilgan o'n to'rt yil o'tdi va Abdullaxon voqeani Sabron qal'asiga taqamishiy qilib olib keldi. Bungacha u va Bobo sulton o'rtasida kamida yetti-sakkiz marta katta jang bo'ldi. 1580-yili Bobo sultonning oldingi shahdi so'nib, Toshkent amalda uning qo'lidan ketdi. U sirdan Abdullaxonga tobedek ko'rinsa-da, dushmanligini qo'ymadi.

CHALA "OH..."

1582-yili Bobo sulton Toshkentni tashlab, o'g'li Abdulatif sulton, otalig'i amir Jon Muhammad va bir to'da bahodirlari bilan Dashtga chiqib ketdi. Ulug' tog' etaklarida mang'itlar mamlakatida sarson kezdi va u yerdan ham quvildi. Turkiston qal'asidan umidvor bo'lib, o'sha tarafga yurdi. Qozoq Tavakkal sulton Abdullaxon farmoniga binoan, anchadan beri ushbu qal'a yaqinida qo'sh tashlab o'tirgan edi. U Bobo sultonning shahardan kiyim, oziq-ovqat xarid qilib qaytayotgan mulozimlarini tutib, ahvoldan to'liq xabardor bo'ldi. Abdullaxonga xabar jo'natib, o'zi shu atrofdagi o'zbek sultonlarining bir guruh qo'shini bilan birga Bobo sulton va Bo'zaxo'r sulton ustiga to'satdan bostirib bordi. Sultonlar g'afatda gangib qoldi. Bo'zaxo'r sulton kutilmaganda Bobo sultonni tashlab qochdi. Vaziyatda umid ko'rmagach, Bobo sulton o'g'li Abdulatif bilan vidolashdi. Dushmandan qutulish uchun otini toqqa haydadi. Bu orada o'g'li va bir guruh askarlari asir tushdi. Tavakkal sulton ta'qibni kuchaytirdi.

NIHOYAT, bir o'rada Bobo sultonning oti qancha niqtangani bilan yurmay qo'ydi. Amir Jon

Muhammad oti ham joyida qotdi. Dushman izma-iz yetib keldi. O'q-yoyni olib, himoyalanihdan o'zga chora qolmadi. Shu chog' u tarafdin otilgan bir o'q Bobo sultonning jon chiqar tomiriga kelib qadaldi va hayoti torining oxirgi sadosi chala "oh..." bo'lib uchdi. Yarmi jonsiz tanada qolib ketdi.

Xusrav sulton voqeasi takrorlandi. Qismat eng zarur paytda buning otini ham tushovlab qo'ydi. U yirik qo'shin bilan jangda chekinayotib, mardonavor halok bo'lgandi. Bu kichik bir to'daning qo'lida o'ldi, loshi dashtda qoldi. Tavakkal sulton hijriy 990-yili rajab oyining 17-kuni (1582, 7-avgust) uning jonsiz tanasidan boshini uzib, Abdullaxon poyiga olib bordi.

* * *

Baland ovozli suvoriydan bu hikoyalarni qayta eshitganlar bag'ri chilpora bo'ldi. Dovruqli Bobo sulton va o'g'li Abdulatif hamda ukasi Tohir sultonlar boshi ularning ro'parasida ayanchli ahvolda uchi o'tkir tayoqlarga ilinib turardi. Kechagina Abdulatif sulton tirik edi va bo'lgan voqeani u gapirib bergandi. Qaysar jangchi bu gal bo'ysunmas Qal'a ruhini bandi etishga erishdi.

JANGCHINING QAYTISHI

Qaqshatqich jang bo'ldi. Shahar hokimi Abdusattor sulton Bobo sultonning uchinchi o'g'li edi. Uning ko'z oldida otasi, akasi va amakisining uzilgan boshi tayoqqa ilinib turardi. U qudratli raqibiga taslim bo'lishni istamadi. Sabron qal'asi ikki qavat devor bilan o'ralgandi. Birinchi devor baland va tepasi ingichka, ustida turib bo'lmasdi. Ikkinchi devordan turib uni kuzatish, oshib o'tmoqchi bo'lgan dushmanni nishonga olish qulay edi. Birinchi devor Abdullaxon qo'shiniga ko'p qiyinchilik tug'dirdi. Qal'a "qozon to'p"lardan tinimsiz o'qqa tutildi, manjaniqlar tosh otishdan birzum to'xtamadi, devorlar sari lahlmlar qazildi...

BU JANGDA amir Qulbobbo Ko'kaldosh va Isfandiyor sulton oldingi safda yelkama-yelka turib, alohida jonbozlik ko'rsatadi. Go'yo Xusrav sulton ham maydonga qaytgandi... Shahar ishg'ol qilindi. Abdusattor sulton tutib keltirildi. Bobo sulton avlodlari hayotining oxirgi "tola"si Xusrav sulton o'g'li Isfandiyor qo'lga tutqazildi.

UZILISH... SO'ZI

Bu jang Keshda (*Shahrisabz*) boshlanib, Sabronda (*Sayram*) oxiriga yetdi. U Qulbobbo Ko'kaldosh hayotining ham muhim bir bo'lagi edi. Mazkur voqealar orasida u davlat tayanchi bo'lgan buyuk amir, yovqur jangchi, zukko maslahatchi, tadbirli sarkarda, burchiga sodiq oddiy askar qiyofalarida ko'rinadi.

Sabron jangidan keyin Keshda Xusrav sulton qatlida ishtirok etgan sultonlarning birortasi yorug' jahonda qolmadi. Qadim Turkistonda hukm surgan Shayboniylar davlatining Mirzo Ulug'bekka ulangan baquvvat "Temuriylar tarmog'i" tiriklik ipi hijriy 990-yili sha'bon oyida (1582, avgust oxiri) shu tarzda uzildi.

Abdusattor JUMANAZAR,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti
katta ilmiy xodimi



Mulohaza

Boburiylar bunyod etgan HINDISTON

Har bir mamlakatda uning o'tmishi va tarixini eslatib turuvchi qadimiy obidalar va yodgorliklar mavjud. Biroq Hindistondagi ulug'vor majmualar, diqqatga sazovor joylar, saroy-u maqbaralarga nazar tashlasak, beixtiyor ko'z oldimizda Bobur va uning avlodlari Humoyun, Akbarshoh, Shoh Jahon gavdalanadi.

Ong-u shuurimiz ularning me'morchilik va qurilish ishlariga qaratilgan sa'y-harakatlari tarix zarvarqlariga o'chmas iz bo'lib muhrlanganini tafakkur qiladi, millatning buyuk o'tmishini saqlab qolishda bunyodkorlik ishlari nechog'li muhim rol o'ynashini anglaydi.

RAQAMLAR TILGA KIRSA...

Esimda, Hindistonga safarimiz mobaynida Dehli, Agra va Jaypur shaharlarida bo'ldik. Bu uch muhtasham shaharda Boburiylar bunyod etgan azim binolar – Toj Mahal, Humoyun maqbarasi, Agra qal'asi, Qizil fort, Jaygar saroyi, Akbar maqbarasini ko'rdik. Naqadar baxtlimiz! Qizig'i, ulardan to'rttasi (*Toj Mahal, Humoyun maqbarasi, Agra qal'asi, Qizil fort*) YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatida turadi. Bizning bisotimizda esa bu "oltin ro'yxat"da turuvchi tarixiy majmualar O'zbekiston bo'ylab shuncha chiqadi. Albatta, "oltin ro'yxat"dagi buyuk bobokalonlarimiz qurgan Fatehpur Sikri, Ahmadobod, Qutab minori bilan qo'shib hisoblaganda. Afsuski, qadamimiz va vaqtimiz u yerlarga yetmadi. Ulgurolmadik. Mayli! Quvonarlisi, bugungi dunyoning yetti mo'jizasidan biri Toj Mahalni ko'rishga muyassar bo'ldik. Hali biz borishga ulgurmagan, YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatida turadigan ma'lum-u mashhur tarixiy obyektlar qanchadan qancha edi u yerda!

Hindistonda 3 696 tadan ziyod antik monument va arxeologik joy bor. Shundan **8 tasi** Zahiriddin Muhammad Bobur, **3 tasi** Humoyun, **13 tasi** Akbar, **3 tasi** Jahongir, **4 tasi** Shoh Jahon, **6 tasi** Avrangzeb Olamgir, **1 tasi** Bahodir Shoh I, **2 tasi** Farruh Siyar, **4 tasi** Ahmad Shoh I, **1 tasi** Olamgir II, **1 tasi** Shoh Olam II, **1 tasi** Bahodir Shoh II – jami **47 ta** tarixiy obyekt Boburiylar sulolasi tomonidan qurilgan. Bu raqamlar ularning bunyodkorlik ishlaridan parcha, xolos... Demak, Hindistonning gullab-yashnashiga sulola o'z hissasini qo'shgan. Bunyodkor otadan bunyodkor bolalar dunyoga kelgan.

Bugungi kunga kelib, Hindistonga har yili taxminan 48 million mahalliy, 1,45 million xorijlik sayyoh tashrif buyuradi. Birgina Toj Mahalning o'ziga bir yilda 5-8 million sayyoh qadam ranjida qiladi. Bizda esa yil bo'yi yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni Toj Mahalga kelib-ketuvchilar barakasiga teng. U yerda turizm sohasi har yili mamlakat yalpi ichki mahsulotiga taxminan 199 milliard AQSh dollari atrofida sof foyda keltiradi. Bu yerda esa 2 milliard AQSh dollarigina, xolos.

YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatida Hindiston tarixiy obyektlari soni 43 tani tashkil etadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 7 ta. Ehh, balki Boburiylar ota yurtida qo'nim topganda, biz bu ro'yxatda yetakchi o'rinni egallarmidik?!

BOBUR MAQSADIGA YETDI(MI)?

Taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida Zahiriddin Muhammad Boburning o'lkamizda amalga oshirmoqchi bo'lgan ulkan maqsadlaridan xabar topamiz. Hatto Bobur yaqinlari sabab fitnaga, Shayboniynxon tomonidan jangga uchrashidan bir kun oldin mavlono Fazliddinga **"Biz sizni Hirotdan chorlab keltirganda yangi qasrlar, chorbog'lar qurdirish umidida edik"** deydi. Ammo falakning gardishi uni Hind sori yetaklaydi. Manglayiga beshafqat qismat yozilgan shoh va shoir umrini Hindistonni obod etishga bag'ishlaydi. Vaqt o'tib, zolim sultonlar Movarounnahrni biqiq muhitga solganini, Obirahmat bo'yidagi uch oshyonlik Ulug'bek rasadxonasi vayron bo'lganini, johillar nurab yotgan rasadxonaning g'ishtlarini olib ketib, o'z hovlilariga ishlatishganini eshitib qattiq o'kinadi va shunday deydi:

– Biz o'zga yurtga kelib, imoratlar qurganda ular o'z yurtimizdagi obidalarni buzmoqda! Charxning bundan achchiq kinoyasi bo'lurmi, mavlono? Shuni o'ylasam, o'z yerimizni qo'yib, Hindga ko'ngil berganim, menga oqibatsizlikdek ko'rinadir!

Zahiriddin Muhammad Boburning qalbida armon bo'lsa-da, yer-u zaminda bog'-u bo'ston yaratishdan aslo tolmaydi. Mahalliychilik, irqchilik kabi tushunchalar unga yot edi. U Hindistondagi qisqa muddatli hukmronligi davrida Temuriylar davri qurilish uslubini o'sha yurtning me'morchiligiga olib kirishga muvaffaq bo'ldi. Shunday ekan, bizning qurilish uslubimiz o'zga yurt zaminida muqim tursa-da, dunyo bo'ylab millionlab sayyohlar ularni ko'rib zavqlanayotganidan xursand bo'lmog'imiz darkor.

HINDLAR NIMA DEYDI?

Ovesh ALAM, 13 yosh, Sikandrabad:

– Boburiylar tomonidan qurilgan obidalar muhtasham va hayratlanarli. Ularning arxitekturasida biz hindlarni hamisha lol qoldiradi. Men Toj Mahal, Agra qal'asi, Akbar maqbarasi, Itmadud-Daula maqbarasi, Fatehpur Sikri va Jama masjidlari bo'lganman. Nazarimda, biz bu yodgorliklarning qurilish uslubi bilan tanishib, yetarlicha bilimlarni o'zlashtirdik. Masalan, Janubiy Osiyodagi ko'plab masjidlar aynan Jama masjidining ko'rinishiga o'xshatib bunyod etilgan. Menimcha, Hindistonda inshootlarning gumbazli qurilishi ham Boburiylar arxitekturasiga tegishli. Boburiylar sulolasi Hindistonda Uyg'onish davri boshlanishiga hissa qo'shgan.

Rahul Kumar YADAV, 32 yosh, Puna:

– Mo'g'ullar imperiyasi nomi bilan ham mashhur bo'lgan Boburiylar yurtimiz hududlarida salobatli va osmono'par binolarni bunyod etdi. Ular qurgan inshootlar Boburiylarning me'morchilik, muhandislik va san'at sohasidagi mahorati yuksak darajada ekanini namoyon etadi. Arxeologik monumentlarga razm solsangiz, unda hind, fors, arab va yevropa ta'sirini o'z ichiga olgan turli uslublarning madaniy almashinuvi va uyg'unligini his etasiz. Boburiylarning me'moriy merosi mintaqamizning madaniy-tarixiy manzarasini bezab kelmoqda. Bu yodgorliklar hanuzgacha arxitektorlar, rassomlar va tarixchilarni ilhomlantirmoqda va butun dunyodagi insonlar uchun hayrat manbayi bo'lib qolajak...

SENDAN FARZANDINGGA BOG' QOL SIN, EY DO'ST!

"Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlarga boqing!" degan edi buyuk sohibqiron Amir Temur. Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur ota-bobolarining pand-nasihatini yerda qoldirmadi. O'g'il-u nabiralariga ham inson ezu amallari bilan boqiy yashashini uqtirdi. Humoyun va Akbarshoh ham farzandiga shu udumni meros qoldirdi. Zero insonning buyukligi, uning nomi barpo etishdek xayrli ishlar bilan abadiy dillarda mangu yashaydi!

Erkin Vohidovning quyidagi satrlari Boburiylarning bunyodkorlik ishlariga chizgidek go'yo:

*Sendan farzandingga
bog' qolsin, ey do'st!
Bog'ing Vatan deya
nom olsin, ey do'st!*

**Azim AXTAMOV,
jurnalist**



Abituriyent – 2025

PSIXOLOGIK

SINOVLARDA SARALANMOQDA

Oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish istagida bo'lgan nomzodlarni saralash jarayonlarining dastlabki bosqichi, ya'ni psixologik test sinovlari Mudofaa vazirligi hamda Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlikda ilk marotaba elektron formatda amalga oshirilmoqda.



Muallif suratga olgan

Toshkent davlat iqtisodiyot hamda Chirchiq davlat pedagogika universitetlarida o'tkazilgan test sinovlarida poytaxtimiz va Toshkent viloyatidan hujjat topshirgan yigitlar jam bo'ldi. Kursantlikka nomzodlar orasida Qurolli Kuchlar akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, O'zbekiston harbiy aviatsiya instituti, Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi singari oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qishga talabgorlar talaygina.

Yunusobodlik Muhammadjon Sunnatov ushbu imtihondan yuqori natija qayd etib chiqqan o'g'lonlardan biri. U O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi kursanti bo'lish uchun astoydil intilmoqda. Yunusobod tumanidagi 23-maktabini a'lo baholarga tugatib, oliy harbiy ta'lim muassasasida o'qib, dadasi singari harbiy xizmatchi bo'lishni maqsad qilgan.

– Nomzodlarning psixologik bilimlarini o'rganishga mo'ljallangan mazkur test metodikasi Mudofaa vazirligi harbiy-kasbiy saralash boshqarmasi mutaxassislari tomonidan elektron shaklda ishlab chiqilgan bo'lib, tizimda amalga oshirilgan ushbu islohotlar bir qator afzalliklarga ega, – deydi Mudofaa vazirligi harbiy-kasbiy saralash boshqarmasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari kapitan Shuhrat O'sarov. – Ushbu test sinovlarini o'tkazishning klassik, ya'ni avvalgi qog'oz-qalam ko'rinishida trafaretli javoblar varaqasi va kalitlar asosida test natijalari qayta hisoblab chiqilar, nomzodlar o'zi bajargan test sinovlari javoblari bilan bir necha soat yoki kun o'tgandan keyingina tanishar

edi. Endilikda har bir nomzod vazifalarni bajarib bo'lgani zahoti o'z natijasini monitorda ko'radi va tizimdagi shaffoflik to'la ta'minlanadi. Ikkinchidan, yoshlarning vaqti tejarmoqda. Hozirda respublikamizning barcha viloyatlarida joylashgan Davlat xizmatlarini

rivojlantirish agentligining maxsus test markazlarida sinovlar o'tkazilib, har bir nomzod uchun o'zlari istiqomat qiluvchi viloyat markazlarida sinovlarni topshirish imkoniyati yaratilmoqda. Uchinchidan, vazirlik rahbariyati sinovlar bo'lib o'tayotgan vaqtning

o'zida viloyatlar kesimida har bir nomzodlarning soni va ularning natijalari haqida to'liq nazoratni amalga oshira oladi. Topshiriqlarining murakkablik darajasi aprotatsiya natijalariga ko'ra, psixometrik mezonlar talablari asosida ilmiy jihatdan asoslantirilgan.

Yana bir e'tiborli jihati, o'qishni Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti singari oliy harbiy ta'lim muassasalarida davom ettirish uchun hujjat topshirgan va ta'lim yo'nalishi mos tushadigan talabalar ham ushbu test imtihonlarida ishtirok etmoqda.

Sohada amalga oshirilayotgan ushbu o'zgarishlar mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada oshirish, harbiylik kasbiga har tomonlama munosib bo'lgan bilimli va salohiyatli, xalqiga va Vataniga sadoqat bilan xizmat qiladigan yoshlarni saralashda muhim o'rin tutadi.



Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

2025-yil – Atrof-muhitni himoya qilish va “yashil” iqtisodiyot yili

CHIQUINDILARDAN QAYTA ENERGIYA:

“yashil” kelajak uchun innovatsiya



Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat uchun eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Atmosferaga tashlanayotgan chiqindilar, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning kamayishi global xavf tug'dirayotgan bir paytda, qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish texnologiyasi muqobil yechim sifatida e'tiborni tortmoqda.

Rivojlangan davlatlar allaqachon ushbu yo'nalishda katta yutuqlarga erishgan. Masalan, Shvetsiya va Yaponiya kabi mamlakatlar chiqindilarni yoqish orqali nafaqat atrof-muhitni himoya qilish, balki qo'shimcha energiya manbalarini yaratishga ham muvaffaq bo'ldi. Ushbu texnologiya chiqindilarni qayta ishlash hajmini oshirib, poligonlarga tushadigan chiqindilarni keskin kamaytiradi. O'zbekistonda ham bu masala muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda har yili millionlab tonna qattiq maishiy chiqindi hosil bo'ladi

va ularning katta qismi to'g'ri qayta ishlanmagani uchun ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Chiqindilarni qayta ishlash ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Germaniya, Shvetsiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda bu soha rivojlangan bo'lib, chiqindilar maxsus texnologiyalar yordamida energiya va xomashyo sifatida qayta ishlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham bu tizim amaliyotga joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2019–2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida**

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori hamda Toshkent shahri, Andijon, Namangan, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarishda investitsiya loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident qarorlari asosida chiqindilarni qayta ishlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Qarorlarga ko'ra, mazkur hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarni qayta ishlash sohasiga zamonaviy yechimlar va texnologiyalarni joriy etish orqali elektr energiyasi ishlab chiqariladi hamda sohaga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb etiladi.

Elektr energiyasini sotib olish va qattiq maishiy chiqindilarni yetkazib berish to'g'risidagi bitimlarga muvofiq, loyiha kompaniyalari ishlab chiqarilgan elektr energiyasini 30 yil davomida “O'zenergosotish” AJga kafolatlangan tarzda sotadi.

Investor va loyiha kompaniyalari 2025–2027-yillarda belgilangan miqdordagi ishlab chiqarish quvvatiga ega uskunalarni ishga tushirishni ta'minlaydi.

Shahboz MURTAZAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Bosh prokuraturasi
huzuridagi Huquqni
muhofaza qilish
akademiyasi tinglovchisi

Huquqiy tushuncha

KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

Davlatimiz rahbari ishtirokida shu yilning 5-mart kuni o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida korrupsiya – islohotlar yo'lidagi eng katta to'siq va g'ov ekani ta'kidlangan edi. Prezidentimiz o'z nutqida: “Hamamiz yagona kuch bo'lib harakat qilsak, albatta, katta ijobiy samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar, yozuvchi va shoirlar, san'at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman, butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qarashi kerak”, degan ezgu g'oyani ilgari surdi.



tashkil etilgan profilaktik tadbirida soha vakillari harbiy xizmatchilar hamda Qurolli Kuchlar ishchi-xizmatchilariga mavzu yuzasidan huquqiy tushunchalar berib, ularni qiziqtirgan savollariga javob berdi.

Ta'kidlash joizki, bugungi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda qator muammolarni keltiryapti, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilyapti. Jamiyat kushandasiga aylanib borayotgan korrupsiya, ta'magirlik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlarning turli usul va vositalari ko'payib, mamlakatimizda ularga qarshi kurash jadal olib borilmoqda.

Tadbirida ta'kidlanganidek, korrupsiya, ta'magirlik, tovlamachilik, firibgarlik bular har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini izdan chiqaruvchi eng xavfli jinoyatlardir. Shuning uchun unga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatimizda bu illatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Uchrashuv yakunida mavzu yuzasidan hujjatli film namoyish etildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy
okrug matbuot xizmati



Prezidentimiz tashabbusi bilan har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olinishi hamda jamiyatning bu illatiga barham berish bo'yicha bergan topshiriqlariga muvofiq, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida qator profilaktik tadbir va suhbatlar olib borilmoqda. Tadbirlarning barchasi sohada korrupsiya va unga olib boruvchi omillarni yo'qotish, harbiy xizmat nufuzi va mavqeyini yuksaltirish, xavfsiz xizmat sharoitlarini yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'lmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri Urganch harbiy prokuraturasi hamda huquqni muhofaza qilish organlari vakillari ishtirokida garnizondagi harbiy qismlarning birida o'tkazildi. “Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton” mavzusida

Voqeiy hikoya



Urushning so'nggi yillari. Yurtdagi ocharchilik qahatchilikka ulangan. Qishloqlarda esa bu hol yanada og'ir. Qurol ko'tarishga qurbi yetgan erkak borki, urushga olingan bo'lib, aksari shahidlikni bajo keltirgan. Uyidagi bor-yo'g'ini – tuyog'idan tortib, parrandasi va dehqonchiligiga qadar frontga topshirgan oilalar amal-taqal bilan jon saqlashga mahkum. Kunda, kunora kimdir ochlikning qurboni bo'ladi. Ammo dalalarda ish to'xtamasligi shart. Asosiy ishchi kuchi ayollar va bolalar. Shu sabab ularga mehnat haqi hisobiga kolxoz ishiga yarab turishi uchun bir mahal bir cho'michdan ob-yovg'on, besh-oltita quritilgan o'rik, bir to'g'ram zog'ora non beriladi. Ishga yaramaydigan yosh bolalar esa onalarining nasibasiga sherik. Gohida sillasi qurigan bolasining ko'z oldida jon berishini istamagan qaysidir ona o'ziga "to'q" bo'lgan kimningdir eshigiga dilbandini tashlab kelgani haqidagi uzun-yuluq gaplar quloqqa chalinadi.

Urushning ilk kunlarida erini janggohga kuzatgan Ziyoda uchta bola bilan bevalik qismatini bo'yniga olgan. Ya'ni oradan to'rt oy o'tar-o'tmas, frontdan kelgan "qoraxat" yosh juvonn karaxt holga keltirdi-yu, azadorlik libosiga o'radi. O'ttizni qoralagan juvon chetdan qaraganda, qirq yoshdan oshgan ayolga o'xshardi. Erining qayg'usi sabab bir kechada ikkala chakkasini qoplagan oppoq soch, ko'kka bo'yalgan keng va uzun bo'z ko'ylak uni anchayin katta ko'rsatardi. To'ng'ichi o'n bir, kichigi besh yosh bo'lgan uch bolaning qorin qayg'usi esa Ziyodani holdan toydirgan, topganini bolalarining og'ziga tutqazib, aksar hollarda o'zi och yurardi. Shu sabab novchadan kelgan xushro'y ayolning go'zalligidan asar ham qolmagandi. Ko'zlari ichiga cho'kib, ozg'inligidan yelkalari bo'rtib chiqqani uchun egnidagi ko'ylak paykaldagi yog'och qo'riqchini eslatardi. Tong sahardan o'g'illari bilan dalaga otlar, yerning boshidagi tutning soyasiga kenjasini o'tqazib, ikkala bolasi bilan ko'pning qatorida kun bo'yi ter to'kardi. Bolalari yosh bo'lgani uchun ularga bir kishining haqi berilardi. Ya'ni ikki cho'mich ovqat to'rt kishining nasibasi edi.

– Buvi (ona), kecha qo'shnimiz Odillarning uyida oppoq bug'doy non ko'rdim. Buvisi Anorxon xolam dasturxonga o'rab qo'ydi. O'sha nondan bizga ham ozgina bersin, ayting, buvijon.

Kenjatoyi Sobitjonning cho'kkan qovoqlari ostidan mo'ltirab turgan yalinchoq nigohi onaning yuragini ezdi.

"Oppoq non? Oq nonni Anorxon qayerdan oldi ekan? U ham men kabi yolg'iz ayol bo'lsa, bug'doy non o'tliqqa yo'q-ku, bizdek bevalarga yo'l bo'lsin".

– Buvijon, xolamga aytasiz, a? – o'g'lining umid bilan iltijoli nolishi Ziyodaning xayolini bo'ldi.

– O'g'lim, sen Anorxon xolangning qo'lida boshqa narsa ko'rgan bo'lsang kerak, – bolasini tinchlantirdi ona. – Negaki har kuni dalada ular bilan birgamiz. Uning bolalari sizlardan ham ozg'in. Quvvatsizlikdan dalaga bazo'r yetib kelyapti. Aksar hollarda paykalda o'tirib ish qiladi. Qanday qilib, ularda bug'doy non bo'lsin.

– Ukamning gapi to'g'ri, – suhbatga qo'shildi katta o'g'li Obidjon. – Men ham yaqinda ostonalaridan nonning ushug'ini topib oldim. Non bo'lmasa, ushoq qayerdan keladi?

Ziyoda o'yga tolga ko'yi jim qoldi. Bolasining gapida jon bor. Non borki, ushug'i tushib qolgan. Qiziq, Anorxonga kim yordam berayotgan ekan? U ham o'zi kabi yon qishloqdan kelin bo'lib tushgan. Sodda, kamsuqum juvon. Ikkisi tengdosh, to'ylari ham deyarli bir paytda bo'lgan. Erlari devordarmiyon qo'shni bo'lib ulg'aygani uchun o'zaro ahil-inoq edi. Frontga ham baravar jo'nagan. Ziyodaning eridan "qoraxat" kelgan bo'lsa, Anorxonning eri bir yil o'tar-o'tmas janggohda dom-daraksiz yo'qolgan. Ikkita o'g'ilchasi bilan bevalikni bo'yniga olgan. Dardi bir, armoni bir, bolam deb yashayotgan xokis ayollar. Shu sabab chindanam qo'shnisida non bo'lsa, bug'doy non ta'mini unutayotgan bolalari uchun bir to'g'ram so'rasa, yo'q demasa kerak. Ziyoda shularni xayolidan o'tkazar ekan, hamon onasiga mo'ltillab tikilib turgan kenjatoyiga "Xolangdan non so'rab ko'raman, o'g'lim, so'rab ko'raman", dedi asta.

Ertasiga ikki dugona bolalari bilan yana dalaga yo'l oldi. Och qorin bilan ekinlarga ishlov berishning o'zi bo'lmaydi. Tushlik paytida esa har doimgidek, quvvati yetganlar qatorida ikkala ayol ham belidagi etakka tesha qistirib, soy yoqalab o'sgan jiydazorga otlandi. Maqsad, jiyda daraxti tanasidagi yelimni ko'chirish. Biroq yelim topishning o'zi amrimahol. Og'izga solib, shimib yursa, tanaga darmon bo'ladi bu ne'mat. Shu sabab katta-yu kichik ochlik girdobida imkon bo'ldi deguncha jiydazorga yo'l oladi.

Yo'l-yo'lakay Ziyoda dugonasiga aytmoqchi bo'lgan dilidagi gapini tiliga chiqardi:

– Anorxon, kenjam Sobitjon uylaringda bug'doy non ko'rgan ekan. Kechadan buyon menga ham ozgina berishsin, deb xarxasha qiladi. So'ramay, desam, ilojim qolmadi. Nima bo'lgandayam, bola-da, gapga tushunmaydi. Mabodo, noningiz bo'lsa, bir tishlam bilan kenjatoyimni siylasangiz, ikki dunyo bu yaxshiligingizni unutmasdim.

Anorxon qo'shnisiga qanday javob qaytarishni bilmay, bir muddat jim qoldi. Dugonasining yalinib aytgan gapi qay darajada yuragini ezib turmasin, uning iltimosini bajarishga ayni damda qodir emasdi u. Frontdan majruh bo'lib qaytgan akasining yordami bilan bolalarining og'ziga onda-sonda bug'doy non tegib turardi. Ayni fursatda esa uning ahvoli ham Ziyodanikidan ortiq emas. Biroq bu holni unga qanday tushuntiradi. Tushuntirgan taqdirda ham uning so'zlariga ishonarmikan?

– Sizni iltimosim bilan qiynab qo'ydim chog'i, nafasingiz ichingizga tushib ketdi, – Anorxonning holatini o'zgacha tushundi Ziyoda. – Hatto jigarlar bir-biriga muruvvat qilmaydigan bunday og'ir pallada qanday qilib bolalaringiz rizqini qiyasiz? Mayli, bizga ham Allohning atagani bordir.

Uning gap ohangida o'z o'mida gina, o'z o'mida kesatiq sezilib turardi.

– Yo'q-yo'q, unday demang, o'rtoq, – shoshib qoldi Anorxon. – Faqat sizga hozir qo'limda non yo'qligini qanday qilib tushuntirishni bilmay turgandim. Frontdan qaytgan katta akam gohida bolalarimni siylab turadi. O'g'il bolalarni bilasiz-ku, ochqaloq bo'ladi. Bir butun nonni ikki kunga qolmay, yeb qo'yishdi. Bo'lmasa, bir tishlam bo'lsa ham, albatta, bergan bo'lardim.

Ziyoda qo'shnisini tushundi chog'i ortiqcha gap qo'shmadi. Faqat eti suyagiga yopishgan ozg'in o'g'ilchasining noumid qiyofasini ko'z oldiga keltirib, ko'ziga yosh to'ldi. Holi qurib, bazo'r qadam tashlayotgan ikki ayol jiydazor oralab, daraxt yelimini qidirib ketdi...

Urush oxirlay demas, hayot tobora og'irlashib borardi. Qishloqda ochlikdan jon berayotganlar soni bir qadar ortgan, ularning ko'pchiligi murg'ak jonlar edi.

– Bolam, bolajonim, ko'zingni och, – ertalab quvvatsizlikdan qovoqlarini ko'tarishga-da, holi bo'lmay yotgan kenjatoyining ahvolini ko'rib, Ziyodaning esxonasi chiqib ketdi. – Hozir senga zog'ora undan atala qilib beraman.

Qaltiragan ko'yi qaysidir burchakka yashirib qo'ygan bir siqim unni izlay ketdi onaizor. Har kuni ikki mahal ko'z tashlab qo'yadigan aziz ne'mat aks bo'lib, hadeganda topilay demasdi.

– Mana, mana topdim. Tezda qozonning tagiga o't yoq Shokirjon, – katta o'g'liga buyurdi Ziyoda. – Xumchaning tagida yarim piyola chiqqulik yog' ham bor. Bularni qora kunga asrab qo'yandim. Qora kun bundan ortiq bo'lmas. Hozir hammalarning maza qilib atala ichasiz. Faqat meni bunday qo'rqitmagin, Sobitjon. Agar sizlarga bir gap bo'lsa, onang ado bo'ladi.

Necha oylardan buyon to'rt dona tuz tashlab, suv qaynatilayotgan qozon va nihoyat yog'li atala ko'rdi. Uning atrofida "biq-biq" qaynashini yutunib tomosha qilayotgan bolalarining quvonchini ta'riflashga so'z ojiz.

– Tanalaringga issiq yugurib, quvvat kirgan bo'lsa, endi dalaga yo'l olamiz, – kosaning tagini qayta-qayta yalab, suv quyib ichayotgan o'g'illariga yorug' yuz bilan yuzlandi ona. – Qancha ko'p ish qilsak, shunga yarasha haq olamiz. Xudo bir joydan yana shunday un yetkazib qolsa, mana shunday shirin atala pishirib beraman, – bolalarini ruhlantirib dalaga otlandi Ziyoda.

Ammo kunlar oylarga ulansa-da, bunday baxt oilada qayta takrorlanmadi. Och-yupun bolalarini omon asrashga harakat qilayotgan Ziyoda shunday og'ir kunlardan birida o'zining nazdidagi eng og'ir gunohga qo'l urdi. Ya'ni qo'shnisining uyiga non ilinjida o'g'irlikka tushdi. "Anorxonga akasi tez-tez non yuborib turgani aniq, – o'yladi u. – Bolalari keyingi paytlarda ancha jonlanib qolgandek. Menikilar esa kundan kun so'lib boryapti. Non so'raganim bilan baribir bermaydi, gunoh bo'lsa ham, dalaga ketganidan foydalanib, uyidan non izlab ko'raman".

Lekin Ziyoda qo'shnisining g'aribona kulbasidan hech vaqo topa olmadi. Ko'rpa-to'shaklar orasidan tortib, hovli sahni-yu, uyga to'shalgan kigiz tagiga qadar obdan titkilab, holdan toygan ayol qarshisida qo'shnisining lol bo'lib turganini ko'rib, o'zini bazo'r qo'lga oldi. U Anorxonning uyiga tez qaytishini kutmagandi. Biroq ochlik girdobida, bolalari ko'yida hushini yo'qotayotgan juvon ayni fursatda aql bilan ish qilishga qodir emasdi.

– Bolalarim ochlikdan o'lib qoladi, ozgina non topib bering, o'rtoq, – devonavor qiyofada qo'shnisiga yuzlandi u. – Bir to'g'ram yetadi, bir to'g'ram!

– O'rtoqjon, uyimda hozir non yo'q, rostdan ham yo'q, – unga qo'l cho'zib yaqinlashayotgan qo'shnisining devona holini ko'rib, o'zini bir qadam orqaga tashladi Anorxon. – Sizni uyimga o'g'irlikka kirasiz, deb hech o'ylamagandim. Og'ir kunlarda bir-birimizga tayanch bo'lish o'miga...

– Tayanch? – Qo'shnisiga nursiz nigohini tikdi Ziyoda. – Tayanch bo'ladigan odam o'layotgan bolalardan nonini qizg'onmaydi. Non topib bering, bir burda non, – kutilmaganda Anorxonning yoqasiga yopisha ketdi.

– Bu nima qilganingiz, o'rtoq, qo'yib yuboring, bo'g'ib qo'yasiz-ku! – jon holatda qo'shnisini itarib yubordi u.

Yerga yuztuban tushgan ayol jim qoldi. Ochlik, holsizlik uning hayotiga nuqta qo'ygandi. Bunday bo'lishini kutmagan Anorxon dugonasining joni uzilganidan bexabar uni o'ziga keltirishga harakat qildi.

– Ziyodaxon, o'rtoqjon, meni qo'rqitmagin, hoy, kim bor! Yordam... yordam bering! Ziyodaning joyiga qo'yilganiga bir oydan oshdi. Bo'lib o'tgan ishda hech kim Anorxonni qoralamadi. Chunki yo'l chetlarida sillasi quriganidan yiqilib, jon berayotganlar kam emasdi. Ammo Anorxonni vijdon azobi har lahzada ta'qib etar, bu fojia qanday sodir bo'lganini hamon anglay olmasdi. Bolalariga qo'shib boqayotgan uch norasidaning oldida o'zini gunohkor sanardi. Besh o'g'ilga onalik qilishni bo'yniga olgan ayol deyarli ovqatlanmas, o'z rizqini yetimlar og'ziga tutqazardi. Shu asnoda besh bolani bir-birlariga mehrlil bo'lib ulg'ayishlari uchun pand-nasihatinani ayamasdi.

– Hormang, opa! – paykalda o'tirib ish qilayotgan Anorxon Ahmad brigadirning tovushini eshitib, o'rnidan qo'zg'alishga urindi. – O'tiring, o'tirib ish qilavering, ahvolingizni tushunaman. Kolxozning faol ishchilaridan edingiz, keyingi paytlarda shashtingiz past desam, bor topganingizni bolalarga yegizayotgan ekansiz. O'zingizni ham o'ylang opa. Besh bolaga ham otalik, ham onalik qilishning o'zi bo'lmaydi. Ertadan keyin ularga ko'proq kerak bo'lasiz. Shuning uchun yashashingiz shart. Kolxoz raisidan sizga ko'proq yemak ajratishini iltimos qildim. Keyin mening ish haqimga beriladigan oziq-ovqatdan ham bolalarga berib turaman. Urush tugasa, bu qiyinchiliklar ortda qoladi hali, opa.

Brigadirning kuyinib aytgan gapidan, mehribonligidan o'pkasi to'lgan Anorxon ko'zida yosh bilan jim qoldi. Gapira olmay, minnatdorlik yuzasidan asta bosh qimirlatib qo'ydi. Shunday og'ir kunlarda ham eldan oqibat ko'tarilmaganiga shukrona keltirdi. Urush tugadi, ammo uning zahmi tugamadi. Uzoq vaqt ayol vujudini yemirgan ochlik ko'p o'tmay, uni to'shakka mixladi. O'zini unutib, bor xayoli bolalarda bo'lgan Anorxon, so'nggi nafasida ham Xudodan besh norasidani omonda asrashini tilab, hayotdan ko'z yumdi...

Qishloq ahli va Ahmad brigadirdek mehrlil insonlar sabab besh o'g'il sog'-salomat ulg'aydi. Chekka qishloqda voyaga yetganlariga qaramay, xat-savodli bo'ldi, shaharda tahsil olib, ziyoli insonlar safiga qo'shildi. Hamisha bir-birini qo'llovchi yigitlar chetdan qaraganda, bir oila farzandiga o'xshardi. Ularning ikki nafari yuqori lavozimlarda yurtga egalik qildi.

O'tgan qayg'uli, sinovli damlami, Ziyoda va Anorxon haqidagi xotiralarni qalbiga muhrlagan Ahmad brigadir esa umrining oxiriga qadar atrofda qilarga bu haqda so'zlab, tinchlikning qadriga yetishga, mehr-oqibatni asrashga da'vat qilib yurdi. Bu voqea hamon el orasida afsonadek asraladi.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

Harbiy sportchi

“KUTGANLARIM KUTILMAGANDA KELDI”

“Hayot kutilmagan tasodiflarga to‘la. Yo‘lingdan nima chiqishini oldindan bilmagan holda qadam bosishga majbursan. Gardkam qilishdan o‘zga chora yo‘qdek. Ammo tanlovda doim ham g‘olib bo‘lavermaysan. “Yo yaxshi bo‘ladi, yoki yaxshilikka” qabilida harakatdan to‘xtamaysan, to‘xtay olmaysan ham. Eng asosiysi, tanlov qilishda doim o‘z fikringga tayanganing sening eng katta yutug‘ing hisoblanadi...”

Yuqoridagi fikrlar kichik serjant Rahmonjon Mamasoliyevga tegishli. U 1996-yili Namangan viloyatida tug‘ilgan. Bugungi kunda Termiz shahrida kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatini davom ettirmoqda. Qahramonimiz yosh bo‘lishiga qaramay, fikri teran, dunyoqarashi keng, bosiq fe‘l-atvorli harbiy sportchi. Rahmonjon haqida ortiqcha so‘zlashdan tiyilgan holda yana uning fikrlariga quloq tutmoqni afzal bildim.

JAHL – ENG KATTA DUSHMAN!

– Oilada akam va opamdan keyin tug‘ilgan kenja farzandman. Sportning karate yo‘nalishiga qiziqqanim uchun 14 yoshimda dadam meni sport zaliga olib borgan. Karate sporti bilan shug‘ullanayotgan bolalarning libosi meni juda o‘ziga tortgan. Hammasi oq rangli kemandoda edi. Murabbiyning bir necha savollariga javob berganimdan keyin meni to‘garagiga qabul qilgan. Murabbiy juda

qattiqqo‘l edi. Biror topshiriqni vaqtida bajara olmasak, qo‘shimcha yuklamalarni bajarishimizga to‘g‘ri kelardi. Qo‘shimcha yuklamani bajarishdan ko‘ra, berilgan topshiriqni o‘rganib kelganimiz afzal edi...

Mashg‘ulot va musobaqalarda juda ko‘p jarohat olardim. Kenja farzand bo‘lganim uchun opam meni doim asrashga harakat qilar, ko‘p qayg‘urardi. Hatto bir safar eshikka qulf solib, sportga qatnashmasligimni talab qilgan. Men esa devordan oshib, mashg‘ulot zaliga yugurgandim.

Turli musobaqalarda ishtirok etarkanman, bitta o‘tkazib yuborilgan zarbadan keyin jahlimni jilovlay olmasdim. Natijada ikkinchi va uchinchi zarbalarni

qabul qilib, mag‘lub bo‘lardim. Mag‘lubiyat alami o‘z ustimda ishlash kerakligini o‘rgatdi. Qolaversa, insonning birinchi dushmani – jahl ekanini angladim. Anglaganlarim va murabbiyning ko‘rsatmalari o‘z samarasini bera boshladi. O‘smirlar o‘rtasida karate bo‘yicha 2014- va 2015-yillarda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston chempionatida 1- va 2-o‘rinlarni qo‘lga kiritganman.

“DADAMGA O‘XSHASHNI ISTAYMAN”

– Dadam juda kamtarin va samimiy bo‘lish bilan bir qatorda, o‘ta kuchli inson. Biror narsani maqsad qilsa, unga erishmasdan to‘xtamaydi. Hech qachon yarim yo‘ldan qaytmaydigan tetik ruhiyatga ega inson. Men taniganlar orasida bunday qat‘iyatga ega bo‘lganlari juda kam. Dadam bilan



Muallif suratga olgan

bittasi men edim. Buni qarangki, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni Surxondaryoda davom ettirishim bo‘yicha buyruq kelgan ekan. Bu xabardan juda xursand bo‘ldim, oilam mendan ko‘ra ko‘proq quvongandi.

HARBIY LIBOSDA YETTI YIL

– Menga armiyada keng ommalashgan qo‘ljangi sport turining jozibasi juda yoqdi. Shu kungacha karate bilan shug‘ullanib kelgan bo‘lsam, qo‘ljangida barcha yakkakurashlar mujassam bo‘lgan ekan. Okrug miqyosida o‘tkazilishi

taqqoslaganda, hatto o‘zimda ham dangasalikka moyillik seziladi. Shuning uchun doim dadamga o‘xshashni istaganman. Hayotim va faoliyatimdagi eng katta motivatsiya ham aslida shu!

INSONNING MUSTAQIL FIKRI BO‘LISHI SHART!

– Odatda, oldimizda tanlash uchun ikki imkoniyat bo‘lsa, albatta, o‘z fikriga tayangan holda bitta yo‘lni tanlagan ma‘qul. O‘zgalar fikri bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Barcha ham to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatavermaydi. Kimdir aqli yetmaganidan, yana kimdir manfaatdan kelib chiqib, yo‘l ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun doim o‘z-o‘zimga ta‘kidlaymanki, insonning mustaqil fikri bo‘lishi shart! Faoliyatim va hayotimga aloqador masalalarda menga maslahat berayotgan barchani eshitaman. Ammo baribir so‘nggi qarorni o‘zim chiqaraman.

“OILAM MENDAN KO‘RA KO‘PROQ XURSAND BO‘LGAN EDI”

– 2017-yili muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tganimdan so‘ng Qashqadaryo viloyatida bir yil Vatanim oldidagi yigittlik burchimni o‘tadim. Xizmatim davomida komandirlarim tomonidan qo‘yilgan barcha topshiriqlarni sidqidildan bajardim. Muddatli harbiy xizmatim nihoyalab borar ekan, armiyada qolish istagi kuchayib boraverdi. Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi bo‘lib qolish uchun tayinlangan sinovlardan o‘tish tavsiya etildi. Barchasini a‘lo baholarga topshirdim.

Hash-pash deguncha, bir yil ham o‘tib bo‘libdi. Uyga qaytish vaqti yetib kelgandi. Ammo... armiyada qolish uchun “Buyrug‘im chiqmadi” degan gapni uydagilarga aytishga uyalardim. Ular meni harbiy xizmatchi bo‘lishimni juda xohlashgandi...

Saf maydonida oxirgi marta saf tortib turardik. Harbiy qism komandiri uyga qaytayotgan askarlarning kelgusi ishlariga omad tilarkan, so‘zi yakunida to‘rt askarning ism-familiyasini o‘qidi va nomi aytilmagan askarlarning barchasini vokzalga chiqish uchun tayyorgarlik ko‘rishini aytdi. Ismi o‘qilgan to‘rt askarning

rejalashtirilgan musobaqaga uch oylik tayyorgarlikdan keyin tatamiga chiqdim. Natija esa 3-o‘rin bo‘ldi. Tabiiyki, egallagan natijamdan qoniqmadim. Menga qo‘ljangi sport turini o‘zlashtirishda kurash yo‘nalishini bilmaganim pand bergandi. Shundan keyin kurash bilan qat‘iy shug‘ullanishni boshladim. Aslida mag‘lubiyatlar tajriba to‘plashimga va o‘z ustimda ishlashimga undadi. Keyingi yil xuddi o‘sha musobaqada raqiblarimning barchasini mag‘lub etib, Mudofaa vazirligi bosqichiga chiqqan edim. Bugungi kunda qo‘ljangi bo‘yicha eng yuqori natijam Mudofaa vazirligi bosqichida 3-o‘rin bo‘lgan. Bu bilan to‘xtab qolishni niyat qilmaganman. Hozirda mashg‘ulotlarda o‘z ustimda ishlash bilan bir qatorda, shogirdlar ham tayyorlamoqdaman. Ajabmas, yaqin kelajakda ular orasidan chempionlar chiqib, jahon arenalarida yurtimiz bayrog‘ini yuqorilarda hilpiratsa.

Harbiy sportchi bo‘lish ikki karra mas‘uliyat ekan. Harbiy xizmatga kelishimdan avval ham sport zallari menga begona emas edi. Ammo harbiy libos kiyganimdan so‘ng men, avvalo, yurtim sarhadlari posboni, keyin esa sportchiman. Shuning uchun ham sportchi harbiy emas, harbiy sportchi deyilsa kerak...

XORIJIY TILNI BILISH KERAK

– Men bo‘sh vaqtlarimda badiiy kitob o‘qiyman. Adiblarimizning asarlarini miriqib mutolaa qilaman. Xorij adabiyotiga ham juda qiziqaman. Rus tilini yaxshi bilganim bois rus adiblarining asarlarini o‘z tilida o‘qishga harakat qilaman. Chunki bir holatga amin bo‘ldimki, tarjima qilingan asar uning asl ruhiyatini to‘lig‘icha ochib berolmas ekan.

Jahon tillaridan biri bo‘lgan ingliz tilini ham o‘rganishni boshlaganman. Men xohlardimki, har bir harbiy xizmatchi hech bo‘lmaganda bitta xorijiy tilni o‘zlashtirishi kerak. Qo‘shimcha til bilgan inson uchun imkoniyatlar eshigi ko‘payadi. Ma‘lumot olish, tajriba orttirish, dunyoqarashning kengayishi va zamon bilan hamnafas bo‘lish uchun ham qo‘shimcha xorijiy til bilish shart!

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



ENAM YOPGAN

nonlarni taniyman...

Tog'ay ancha yillardan beri boshqa yurtida ishlab keladi. Til bilganigami ish topish, joylashish unchalik muammo bo'lmagan. Kamiga qishloq yigitlarini ham yoniga olgan. Uni qora tortib borgan odamni hech qachon noumid qilmaydi. O'zida bo'lmasa, boshqa oshna-og'aynilaridan so'rab-surishtirib, ishga joylashtirib, ko'ngli tinchiydi. Bolalari allaqachon hayotda o'z o'rinlarini topdi. Endi bemalol qishloqqa qaytib kelsa ham bo'laverardi. Bu yerda mol-hol, dehqonchilik qilish mumkin. Ammo bunaqa ishlardan allaqachon qo'li chiqib qolgan, istak ham yo'q edi. Qurilish butunlay boshqa narsa, qilgan ishlarning natijasi tez ko'zga ko'rinadi. Bu ishlarni jon-dili bilan bajargani uchun odamlar uni izlab kelardi. Sabr bilan ishini yakuniga yetkazishini kutardilar.

Yilda bir oy ta'tilga chiqib, ota-onasining yonida bo'lar, so'ng yana jo'nab ketardi. Bu gal uzoqroq qoldi. Keks otasi xasta edi. Tog'ayni yonida ko'rib, qariya mamnunligini yashirmas, o'zini tetik tutishga urinardi. Dunyo ko'rgan bolasi bilan gaplashib o'tirish yoqardi. Keksalik o'z ishini qilib chol xastalikka taslim bo'ldi.

Inson qaysi yoshda bo'lmasin, judolikni og'ir qabul qiladi. Tog'ay uyga sig'may qoldi. Oradagi masofa anchagina bo'lishiga qaramay, vaqt-bevaqt qabristonga qatnay boshladi. Do'ppaygan qabr boshida ba'zan uzoq turib qolardi.

Shunday kunlarning birida onasi yoniga chaqirdi.

– Nimadan bunchalik bezovtasan? Nega hech qayerga sig'may yuribsan? Oldin kelgan oldin ketsin, bolam. Ota-ona o'lmog'i meros, deydilar. Shukr, yaxshi yashadik, bizni o'ynab-kulib tuproqqa topshirsangiz arziydi.

Tog'ay onasining yonida boladek boshini solintirib o'tirdi-da, gap boshladi:

– Otam kelishimni intiq kutardi. Kun, soat sanardi. O'ylab ko'rsam, oldida hech bemalol o'tirmabman. Musofir yigitlarning duoyi salomlarini ota-onalariga yetkazay deb, har birining uyiga borib kelardim, atrof-qishloqlarga ham borar edim. Omonatlarni egalari yetkazay debman. Bolalarim, qarindoshlar, jo'ralar, to'ylardan ortmadim. Otam kun sanab meni kutdi, yonida o'tirib, duosini olay demabman...

– Hah, bolam-a, sening orqangdan minnatdor bo'lib qancha odam kelib-ketdi otangning oldiga, – dedi kampir qoqsuyak qo'llari bilan Tog'ayning yelkasini siypalab. – Shu devorlarning tili bo'lsa, aytsin. Ortingdan har rahmat eshitganida ko'kayi tug'dek o'sdi. Seni alqab, tilidan duo tushmadi. Senga judalar bino qo'ygani. Hatto komandir ukangni ham senchalik alqamagandir. “Ko'plarining qora qozoni qaynab qoldi, uy-joylar quryapti, shular Tog'ayning yordami bilan bo'ldi, odamlarga foydasi tegyapti, bir o'g'il bo'lsa, shunchalik bo'lar”, deb sendan rozi edi. Otangga o'xshaysan, birovning haqqidan hazar qilishing, yetti yot begonalarning ham tashvishini

qilib yurishing... Endi ishingga qaytsang ham bo'ladi, musofirdagi yigitlarning ham ko'zlari yo'ldadir.

Tog'ay boshini onasining yelkasiga avaylabgina tekizib qo'yd.

– Ena, men bilan ketasizmi?

Kampir yumshoqqina kulib qo'yd.

– Men otangni tashlab ketolmayman, – dedi hazin ovozda, – ellik besh yillik yo'ldoshimni tashlab, yurt osha yurishim nomardlik bo'ladi.

Tog'ay jim qoldi. Endi onasini majburlab ham bu yerlardan olib ketolmasligini yaxshi tushunib turardi. Negadir o'zida ham avvalgidek ishtiyoqni his qilmadi. Ammo ketishi kerak. O'rnidan turib, qishloqni bir aylangisi keldi. Negadir yana oyog'i o'z-o'zidan qabriston tomonga tortdi. Yo'lda eski choyxona oldida gurunglashib o'tirgan odamlarni ko'rib, ularga qarab yurdi. Hammasi guvullashib salomlashdi. Otasi yaxshi gaplar bilan eslandi. Musofirdagi o'g'illar haqida gaplashdilar. Shu payt oradan birov o'g'ida nosi bilan so'rab qoldi:

– Tog'ayboy aka, bijding ul yuvoryatgan pulding cho'g'i kam? Ishlayappa o'zi?

Tog'ay gapirgan odamga qarab gezarib ketgan bo'lsa ham, o'zini bosdi. Ko'z oldiga hamma Kichkintoy deb chaqiradigan Jo'rabek keldi. Uni ilk bor ko'rganida erkakning yuragi achishgan edi. Qiltiriq, hali bolalik tark etmagan yuz-ko'zlariga qaragan kishining rahmi kelardi. Ammo bu yerda rahm-shafqatga joy yo'q, hamma tirikchilik tashvishida, har kimning ortida kamida to'rt-besh yeyarman og'iz kutib turibdi. Bolani ham o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Shuncha yerdan qora tortib kelibdi. Tog'ay uning kuchiga yarasha ish topdi. Yigitcha kularyuzli, oqqo'ngil edi, chaqqonligi bilan hammaning mehrini qozondi.

Oradan bir yil o'tib, Kichkintoyning onasi olamdan o'tgani xabari keldi. Otasi Tog'ayga telefon qilib, unga bu xabarni aytmalikni astoydil tayinladi. “Yana pul sarf qilib, kelib-ketib yurmasin, ulim keldi, deb o'lgan odam ham tirilib kelmaydi”, deganida erkak lol bo'lib qolgan edi. Hech narsadan bexabar Kichkintoy onasini eslab, ba'zi voqealarni gapirganida o'zini aybdordek his qilar edi.

Eng achinarlisi, Tog'ay ta'tilga ketayotganida bo'ldi.

– Tog'ay bobo, – dedi yalinchoq ovozda, – qishloqqa borganingizda enamni o'zingizning telefoningizda men bilan gaplashtiring, olti oy bo'lyapti, ovozini ham eshitmadim. Otamdan so'rasam, “Emasanmi, enangni, men bilan gaplashding, yetadi”, deb telefonni o'chirib qo'yadi.

Erkakning yuragi simillab ketdi. Tog'ay o'zini diydasi qattiq deb biladi, musofirchilikda har narsani ko'raverar ekansan. Fojialar, quvonchlar, omad, omadsizlik, rost-u yolg'onlar... Bular istasang, istamasang ham, senga saboq bo'ladi. Ammo qarshisida ko'zlari javdirab turgan o'n sakkiz yashar yigit, bolasidan ham kichik hamqishlog'i boshiga qanday g'am tushganidan bexabar undan umid bilan javob kutayotgandi.

– Yaxshi, yaxshi, albatta... gaplashtiraman, – dedi ko'zlarini qayerga olib qochishni bilmay.

– Rahmat, Tog'ay bobo, kutaman, yaxshi borib keling, enamga meni o'ynab-kulib yuribdi, deb aytg.

Tog'ay chidolmay shaxt bilan ortiga burildi.

Bir oy yelkasida zil-zambil yukni olib yurgandek bo'ldi. Ta'til ham tatimadi. Qaytib borganida Jo'rabekdan o'zini olib qochmoqchi bo'ldi. Imkonsiz. Kelganini eshitib, hamqishloqlar yig'ildi. Xotini yopgan patirlarni o'rta qo'ydi. Ikki patirni Kichkintoyga uzatdi:

– Enang berib yubordi, sen uchun pishiribdi, – dedi.

Jo'rabek qo'lidagi patirni ochib ko'rdi-da, bir dasturxonga, bir Tog'ayga qarab, ko'zlari g'itilladi:

– Tog'ay bobo, rostini aytg, enamga nima bo'ldi?

Hamma jim bo'lib qoldi.

– Heech gap yo'q, – dedi bo'shashib Tog'ay.

– Men enam yopgan nonlarni taniyman, bu patirni enam yopmagan, – dedi Jo'rabek yig'isini zo'rg'a ichiga yutib. – Gaplashtiraman dedingiz-da, jim bo'lib ketdingiz. Siz so'zini unutadigan erkak emassiz, rostini aytg, enam sog'mi?..

Tog'ayning ortiq toqati qolmadi. Yigitchani mahkam bag'riga bosdi va dedi:

– Bardam bo'l, o'g'lim! Bandalik ekan...

Bir uy erkak jim. O'ksinib-o'ksinib yig'layotgan yigitga har birining joni achir, tasalliga so'z topolmay o'tirardi. Ko'pchiligining farzandlari uning yoshida edi, shundan Kichkintoyning achchiqdan achchiq g'ami yuraklarni pora-pora qildi.

Shundan keyin Jo'rabek kasallanib qoldi. U yolg'iz farzand edi. Otasi haqida hech qachon gapirmas, onasi haqida yuzlari yorishib, bolalik xotirlarini gapirib qolardi. U otasining telefonlariga javob bermay qo'ydi. Ayniqsa, yana uylanib olganini eshitgach, otasi haqida eshitishni ham istamaydigan holga keldi. Shunda ham kasalligi tufayli kamroq chiqqan maoshining bir qismini otasiga jo'natdi.

Tog'ay bularning bariga guvoh edi. Qarshisida hech tortinmay,

o'g'lining holini emas, pulini so'rayotgan erkakka nima deyishni bilmay, bir zum taraddud ichida qoldi.

– Sen... – Tog'ay avvaliga biroz tutildi, so'ng ko'zlarini o'qdek tikib davom etdi: – U ancha vaqt kasallanib qoldi, onasining o'limini ko'tarishi og'ir bo'ldi. Xotining kasallanib yotganida, doktorlar umid yo'q, deyishganida, nega Jo'rabekni chaqirmading? Onasining sovuq diydorini ham o'z bolangga ravo ko'rmading? U hali juda yosh...

– E, aka, aqlilik qilavermang, – dedi erkak nosini yonginasiga tupurarkan, – kelib-ketishga qancha pul ketishini bilasiz-ku?! Kelgani bilan o'lgan odam tirilib qolama? O'zi qarz-qavola bilan jo'natgan bo'lsam.

– Chaqirganingda edi, o'zimiz pul yig'ib berar edik. Har doim ishlayver, kelib yurma, deysan! Nega? Bir yarim yildan beri ishlaydi, har oy peshma-pesh kattalardek senga pul jo'natadi. O'zim shaharga tushib, jo'natganman. Nima qilyapsan uning topgan pullarini? Uy o'sha uy holida turibdi, qiyshiq darvozang tikka bo'lgani yo'q, qo'rangda cho'loq uloq ham yo'q, hayhotday tomorqang bo'm-bo'sh, giyoh ham ko'kargani yo'q!

– Sizga nima? Ul meniki, otasiman, boqadi-da!

– Sen boqiladigan molmisan?! Sen tengilar oilam, bolam-chaqam deb ishlab yuribdi. O'ligini xotiniga qo'shib o'n sakkiz yashar bolaning yelkasiga ortib olgani yo'q! Menga qara, ikki qulog'ing bilan yaxshilab eshitib ol, endi pul yubormaydi, yubortirmayman! O'zi uchun o'qishga majburlayman!

– Yubormasa, voz kechaman unday uldan!

– Jo'rabekdan voz kechgan ko'r bo'ladi! Asli senga o'xshagan ochko'z otadan voz kechish kerak! Ota ham shunchalik pastkash, qahri qattiq bo'ladimi?! Hayf senga otalik!

Erkak Tog'ayga qarab yana nimadir demoqchi edi, atrofdagilarning o'ziga qaratilgan sovuq nigohlaridan cho'chib, bo'ynini ichiga tortib oldi. Boyadan

beri ularning gapiga jim quloq solib turgan Jovli chol Tog'ayga qarab dedi:

– Pul-mul yubortirma, o'sha yoqlarda o'qisin, odam bo'lsin. Bu hali ellikka kirgani yo'q, to'rt tola soqolini silab, qachon qarama ko'cha boqib o'tiradi. Ishlasin, o'lmaydi. Kelin o'ladigan ayolmidi? Ziqna, nokasligidan do'xtirga ham ko'rsatmadi.

Erkak nimadir demoqchi edi, chol hassasi bilan do'q qildi:

– O'chir ovozingni, shu hassa bilan boshingni yoraman!

U madad istagandek yonidagilarga bir-bir qaradi. Hamma yuzini o'girdi. Ular orasida ortiqcha ekanini sezib, dum qisilgan itdek ortiga tislandi. G'udrana-g'udrana uyi tomon yurdi. Go'yo ortidan nima deyishlarini eshitmoqchidek boshini xiyol yonboshga tashlab, imillab keta boshladi.

Tog'ay boshini afsus bilan chayqar ekan, Jovli cholga qarab dedi:

– Siz Jo'rabekni bilmaysiz, juda rahmdil, buni tashlab qo'ymaydi, ko'rasiz, baribir bunga o'zidan orttirib, pul jo'natadi.


– Rahmatli kelin yaxshi ayol edi, quyiqlik jo'ramning qizi edi-da, o'g'li onasiga tortibdi. Bolam, nima bo'lganda ham shu bolani suyanglar, o'qisin, odam bo'lsin. Otaning ahvolini ko'rib turibsan. Shuncha savob ishlar qilding, shu yetim bolani ham qo'lla, sen uddasidan chiqasan. Bizning qo'limizdan kelgani duo qilish...

Shu kuni Tog'ay qabristonga borishni unutib, qariyalarning suhbatiga chalg'ib qoldi.

Aziz o'quvchi, bunday voqealarga siz ham guvoh bo'lgansiz. Siz-chi, siz o'g'lingizdan boqishini talab qilarmidingiz? “O'g'il bo'lganidan keyin boqadi-da!” Siz ham shunday o'ylaysizmi? Siz kimni boqaysiz? 17-18 yashar o'g'il ota oldida qanchalar burchli?

Fikrlaringizni yozing. O'z hikoyangiz – ota-o'g'il hikoyangiz bilan o'rtoqlashing. Hayotiy saboqlaringiz bilan bo'lishing.

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



Ipak yo'li – 2025

Sport

Motokross bo'yicha xalqaro musobaqa

Navoiy viloyatining Karmana tumanida joylashgan mototrassada O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan sportning motokross turi bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionati va birinchiligining 2-bosqich musobaqasi hamda "Ipak yo'li – 2025" xalqaro ochiq kubogi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlari va boshqa davlatlardan qatnashgan 100 dan ziyod sportchi birinchilikda "65 sm³", "85 sm³", "125 sm³" sinflarda, chempionatda "125 sm³", "500 sm³", "ChZ-350³", "750 sm³", "500 sm³", "Xitoy", "Faxriylar A", "Faxriylar B" sinflarida, xalqaro kubok musobaqasida esa "125 MX-2", "500 MX-1", "750 MX" sinflarida sport mototsikllarida bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan ekstremal poyga bahslari quyidagi natijalar bilan yakunlandi.

Birinchilikning 2-bosqich musobaqasi:
"125 sm³" (o'smirlar) sinfida:

- 1-o'rin:** Elbek A'zamqulov (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Saidbobojon Saidov (*Navoiy v.*);
3-o'rin: Ilnur Umerbekov (*Toshkent v.*).

"65 sm³" sinfida:

- 1-o'rin:** Bahrom Bahodirov (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Sherxon Suvonov (*Navoiy v.*);
3-o'rin: Doston Hayitmatov (*Sirdaryo v.*).

"85 sm³" sinfida:

- 1-o'rin:** Oybek Qobuljonov (*Sirdaryo v.*);
2-o'rin: Zufar Bahodirov (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Daniil Chechevich (*Toshkent v.*).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin:** Buxoro viloyati;
2-o'rin: Navoiy viloyati;
3-o'rin: Toshkent viloyati jamoalari.

O'zbekiston chempionati 2-bosqich musobaqasi:

"125 sm³" (katta yoshlilar) sinfida:

- 1-o'rin:** Emran Ablyazov (*Toshkent v.*);
2-o'rin: Baxtiyor Ahmedov (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Bogdan Saturyan (*Navoiy v.*).

"ChZ-350³" sinfida:

- 1-o'rin:** Bekzod Halimboyev (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Adham Temirov (*Navoiy v.*);
3-o'rin: Anvar Alimov (*Sirdaryo v.*).

"500 sm³" sinfida:

- 1-o'rin:** Jasur Samatov (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Emran Ablyazov (*Toshkent v.*);
3-o'rin: Andrey Sazonov (*Toshkent v.*).

"500 sm³" (Xitoy) sinfida:

- 1-o'rin:** Sevil Velullayev (*Namangan v.*);
2-o'rin: Igor Postegin (*Qozog'iston*);
3-o'rin: Dilmurod Rahimov (*Toshkent sh.*).

"750 sm³" sinfida:

- 1-o'rin:** Artyom Boronenkov, Yegor Boronenkov (*Rossiya*);
2-o'rin: O'tkir Berdiyev, Mehriziyod Berdiyev (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Asror Hayitov, Adham Temirov (*Navoiy v.*).

"Faxriylar" (A) sinfida:

- 1-o'rin:** Anvar Alimov (*Sirdaryo v.*);
2-o'rin: Dilshod Ne'matjonov (*Farg'ona v.*);
3-o'rin: Ruslan Xamidulin (*Toshkent sh.*).

"Faxriylar" (B) sinfida:

- 1-o'rin:** Nikolay Sharabayev (*Xorazm v.*);
2-o'rin: Georgiy Bochkaryov (*Toshkent sh.*);
3-o'rin: Igor Sichov (*Toshkent sh.*).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin:** Buxoro viloyati;
2-o'rin: Toshkent viloyati;
3-o'rin: Toshkent shahri jamoalari.

"Ipak yo'li – 2025" xalqaro ochiq kubogi:

"500 MX-1" sinfida:

- 1-o'rin:** Jasur Samatov (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Emran Ablyazov (*Toshkent v.*);
3-o'rin: Andrey Sazonov (*Toshkent v.*).

"125 MX-2" sinfida:

- 1-o'rin:** Emran Ablyazov (*Toshkent v.*);
2-o'rin: Baxtiyor Ahmedov (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Bogdan Saturyan (*Rossiya*).

"750 MX" sinfida:


- 1-o'rin:** Artyom Boronenkov, Yegor Boronenkov (*Rossiya*);
2-o'rin: O'tkir Berdiyev, Mehriziyod Berdiyev (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Asror Hayitov, Adham Temirov (*Navoiy v.*).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin:** O'zbekiston-1;
2-o'rin: Rossiya;
3-o'rin: O'zbekiston-2 jamoalari.

G'oliblikni va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Aviamodel sportchilari chempionati



Xorazm viloyatining Urganch shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan xona aviamodellari bo'yicha respublika chempionati o'tkazildi.

Musobaqada Toshkent shahri va viloyatlardan tashrif buyurgan 60 nafarga yaqin sportchi o'zlari tomonidan yasalgan xona aviamodellarining yopiq binoda ucha olish imkoniyatlarini namoyon etdi.

Murosasiz va qizg'in kechgan chempionat quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

F-1D (katta yoshlilar) sinfida:

- 1-o'rin:** Shahboz Bafoev (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Shamsiddin Bafoev (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Farrux Safoev (*Navoiy v.*).

F-1N (katta yoshlilar) sinfida:

- 1-o'rin:** Ulug'bek Tursunov (*Toshkent sh.*);
2-o'rin: Shahboz Bafoev (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Farrux Safoev (*Navoiy v.*).

F-1D (yoshlar) sinfida:

- 1-o'rin:** Temur Jo'rayev (*Toshkent sh.*);
2-o'rin: Shohjahon Zaripov (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Bekzod Rahmonov (*Navoiy v.*).

F-1N (yoshlar) sinfida:

- 1-o'rin:** Anvar Negmurodov (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Temur Jo'rayev (*Toshkent sh.*);
3-o'rin: Behro'zbek Anvarov (*Farg'ona v.*).

F-1M (yoshlar) sinfida:

- 1-o'rin:** Miraziz Murodullayev (*Buxoro v.*);
2-o'rin: Jonibek Karimov (*Buxoro v.*);
3-o'rin: Anvar Ochilov (*Buxoro v.*).

Jamoa hisobida 1-o'rinni Buxoro viloyati, 2-o'rinni Toshkent shahri va 3-o'rinni Navoiy viloyati jamoalari egalladi.

Yuqori o'rinlar va g'oliblikni qo'lga kiritgan sportchilarga "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Davra suhbat



Narkomaniya, alkogolizm va OIV — umr zavoli

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazida "Giyohvandlik, toksikomaniya, alkogolizm hamda orttirilgan immun tanqisligi (OIV) sindromi tarqalishining oldini olish" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.



Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamda harbiy xizmatchilar ishtirok etgan tadbirda Mudofaa vazirligi tibbiy ta'minot boshqarmasi bo'lim boshlig'i tibbiy xizmat podpolkovnigi Ahrorjon Ismoilov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Narkologiya dispanseri narkolog shifokori Abror Jalilov og'uni iste'mol qiluvchilarning ko'pchiligini o'smirlar tashkil qilishi, ular orasida giyohvandlik va psixotrop moddalariga ruju qo'yish oqibatida turli kasalliklar orttirishi, jinoyatlarga qo'l urishi tashvishli hol ekanini ta'kidladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini kimlar va qanday o'tkazayotgani nazorat qilinmasligi, qo'lida ortiqcha pullarning paydo bo'lishi giyohvand modda iste'mol qilish xavfini oshirishi, bunda ota-onalar farzandlarining bo'sh vaqtlarida foydali ishlar bilan shug'ullanishini ta'minlashi zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, tadbir davomida giyohvandlar o'ta xavfli kasallik bo'lgan OITS hamda OIV kasalligini tarqatuvchi asosiy manbaga aylanib qolishi mumkinligi haqida mutaxassislarining ma'ruzalari tinglandi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab taxminan 38,5 million bemor OIV bilan kasallangan. Ularning yillik o'sishi 1,5 mln kishini tashkil etmoqda. Ushbu kasallikdan har yili 600 000 dan ortiq odam vafot etmoqda.

O'zbekistonda OIV infeksiyasining birinchi holati 1987-yilda qayd etilgan. Shu paytdan boshlab 2022-yilning 1-yanvarigacha 71 mingga yaqin holat qayd etilgan, OIV infeksiyasi bilan kasallanib o'lganlar soni 23 mingdan ortiq odamni tashkil etgan. Suhbat davomida mutaxassislar bugungi kunda OIV infeksiyasi Yer yuzining barcha mamlakatlariga tarqalgani, shu jumladan O'zbekistonda ham bu kasallik dastlab xorijlik fuqarolar orasida, keyinchalik esa mahalliy aholida qayd etilganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasining tarqalishiga qarshi o'tkazilayotgan tadbirlarning samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlar nafaqat tibbiyot xodimlari, balki jamiyatimizning boshqa soha vakillariga ham mas'uliyatli vazifalarni yuklashi, respublikamiz aholisi, xususan yosh avlod salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishga chorlashini aytib o'tdi.

Davra suhbatlari davomida mutaxassislar yig'ilganlarni ogohlik va hushyorlikka chorlab, ularga harbiy xizmatchilarga belgilangan tibbiy ta'minot me'yorlari, davolanish-profilaktika muassasalari haqida batafsil ma'lumotlar berdi.

Tadbir yakunida mavzu yuzasidan hujjatli film namoyish etildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Musobaqa

Yoshlar bellashuvi

Mudofaa vazirligi maxsus avariya-tiklash boshqarmasida Toshkent harbiy prokurori kubogi uchun sport musobaqalari tashkil etildi.

Musobaqalarda harbiy xizmatchilarning farzandlari hamda Zangiota tumanidagi maktab o'quvchilari sportning minifutbol, voleybol, stol tennisi, shaxmat va shashka turlari bo'yicha bellashdi.

Yakunda g'olib jamoalar tashkilotchilar tomonidan diplom, kubok, medal va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, yoshlarga harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyish etildi, ular harbiy qism hayoti bilan tanishtirildi.

"Impuls" harbiy ansambli ijrosidagi kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Bu kabi tadbirlar yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ular o'rtasida sportni keng targ'ib qilish orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adliya polkovnigi Odil O'SAROV,
Toshkent harbiy prokurori

Vatanparvarlik

Kelajak bunyodkorlari

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy qism va muassasalar bilan hamkorlikda Xorazm viloyatining olis chegaraoldi hududida joylashgan Hazorasp tumanining Aloqali ko'l mahallasida yashovchi yoshlar bilan vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Unda Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiyaga qarashli harbiy tuzilmalar harbiy xizmatchilari tomonidan qurol-aslaha va texnikalar ko'rgazmasi namoyish etildi.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida arqon tortish, shaxmat-shashka, stol tennisi va boshqa sport turlari bo'yicha bellashuvlar tashkil etildi.

Yakunda g'oliblarga esdalik sovg'alar topshirildi.

Adliya kapitani Aziz ALIMKULOV,
Urganch harbiy prokurorining katta yordamchisi

Ochiq muloqot

Korrupsiya — taraqqiyotga tahdid

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi hamkorligida Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida ochiq muloqot o'tkazildi.

"Korrupsiya — taraqqiyotga tahdid" mavzusida o'tgan tadbirda Prezidentimiz tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashining joriy yil 5-mart kuni yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosiga alohida e'tibor qaratildi.

Jarayonda sohada korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida kelgusida ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan tadbirlar yuzasidan fikr-mulohaza almashildi.

Xususan, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, korrupsion holatlarning oldini olish, shuningdek barcha yo'nalish va jabhalarda qonunchilik talablariga so'zsiz rioya etish ta'kidlab o'tildi.

Adliya podpolkovnigi G'iyosiddin RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

Umummilliy loyiha

"Yashil makon"

Mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Yashil makon", "Yashil belbog'" tadbirlari uyushqoqlik bilan amalga oshirilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan ham qator amaliy tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, Toshkent viloyati Parkent tumanining Qiziltog' hududida 2 gektardan ortiq foydalanilmasdan turgan yer ekishga tayyorlandi. So'ngra hududga 2 mingdan ziyod mevali va manzarali daraxt ko'chati o'tqazildi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan bu kabi tadbirlar ekologiyani yaxshilash, yashil makonlarni kengaytirish va aholining, xususan yoshlarning tabiatga bo'lgan daxldorlik hissini, o'simlik va hayvonot dunyosiga mehr-muhabbatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adliya podpolkovnigi Feruz XAMZAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim boshlig'i o'rinbosari

YUKSAK MARRALAR SARI



O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi texnik va amaliy sport turlari markazida sportni yoshlar orasida rivojlantirish va ommalashtirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyat terma jamoasi shakllantirilib, nufuzli musobaqalarda ularning faol ishtiroki ta'minlanmoqda.

ishtirok etdi. Musobaqalar natijalariga ko'ra, 2 nafar sport ustasi, 1 nafar sport ustaligiga nomzod va 3 nafar birinchi toifali sportchi tayyorlandi. Sport seksiyalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish maqsadida maxsus liboslar jamlanmasi hamda sport anjomlari olinib, ular ixtiyoriga berildi.

Viloyat terma jamoasining to'rt nafar a'zosi respublika miqyosidagi nufuzli musobaqalarda qatnashib, umumjamoa va yakka tartibda 1-va 2-o'rinlarni egalladi. Bunday sportchilardan Hojiakbar Havdarov.

Shu kunlarda markazda nafaqat sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash ishlari ham yo'lg'a qo'yilgan. Bugungi kunda markazda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Shuningdek, yoshlarni ona Vatanga sadoqatli farzandlar sifatida tarbiyalash borasida viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi chaqiriluvchilarni harbiy texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazi, ichki ishlar boshqarmasi IXB YHXB, Milliy



Bugungi kunda viloyatda “Havo miltigʻidan oʻq otish”, “Yozgi biatlon”, “Duatlon”, “Triatlon”, “Motosport”, “Aviamodel”, “Radiosport”, “Avtokross”, “Karting” singari sport seksiyalari faoliyat koʻrsatmoqda. Oʻz navbatida bu kabi toʻgaraklarga tajribali sport murabbiylari birlashtirilgan.

- Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining 2025-yilga

mo'ljallangan rejasiga asosan, joriy yilda 14 marta viloyat musobaqalari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Shundan hozirgi kunga qadar muhim sanalarga bag'ishlangan havo miltig'idan o'q otish, yozgi biatlon kabi sport turlari bo'yicha olti marotaba viloyat musobaqasi o'tkazildi, – deydi markaz direktori Tohirjon Yigitaliyev. – Bu musobaqalarda 650 nafar sportchimiz muvaffaqiyatli



Matvey Machalkin, Dilxushbek Murodov, Nurbek Imomqulov singari sportchilarimiz mamlakat terma jamoasi safida bir necha bor nufuzli musobaqalarda g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Ayni paytda ham viloyatimiz sportchilari orasida respublika musobaqalarining ko'plab g'olib va sovrindorlari yetishib chiqmoqda. Ular respublika chempionati birinchiligi hamda kubogi musobaqalarida viloyatimiz sharafigini munosib himoya qilmoqda.

gvardiya harbiy xizmatchilari, Yoshlar ishlari agentligi va keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda belgilangan reja asosida tadbirlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, o'quv-moddiy bazani yanada rivojlantirish va zamon talablari asosida qayta jihozlash yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, yoshlarni yuksak marralar sari ruhlantirish, sportning ommaviyligini oshirish yuzasidan dadil qadam tashlanmoqda.

Akbar ALLAMURODOV

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

EZGU ISHGA munosib hissa



Kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-u muhabbatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy fazilatlari bu vatanparvarlikdir. Shu bois ham bu tuyg'uni yoshlar orasida shakllantirish hamda ularni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Oqoltin tumani o'quv sport-texnika klubida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.



Bu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini yaxshilash maqsadida tashkilot a'zolari turli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Chunonchi, yoshlarni ijtimoiy foydali va ommaviy vatanparvarlik ishlariga yo'naltirish borasidagi tadbirlar shular jumlasidandir.

– Bugungi kunda klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, to'garaklar ishini yo'lga qo'yish, sport musobaqalarini tashkil etishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Nuriddin Jalilov. – Muhim sanalar munosabati bilan tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Ma'naviyat va targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Uch avlod uchrashuvi", "Ochiq eshiklar kuni" kabi tadbirlarda tumandagi 1- va 3-umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari qatnashdi. Tadbirlarda ishtirok etgan qator soha vakillari yurtimizda yoshlar uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalanish to'g'risida kerakli tavsiyalarni berdi. Albatta, bunday tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni barkamol shaxslar sifatida

tarbiyalashdek ezgu ishga munosib hissa qo'shishdan iboratdir. Shu tufayli bunday ezgu amallar salmog'i ortmoqda. Natijada yoshlarni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko'rgazmali tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish ham o'zining ijobiy samarasini beryapti.

Ayni paytda klubda bo'lajak haydovchilarning malakasini oshirish, ularning o'quvini namunali tashkil etish borasida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Bu esa, o'z navbatida, muassasada "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlashda qulay imkoniyatlarni yaratmoqda.

Har qanday qo'lga kiritilayotgan yutuqlar o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bunda albatta fidoyi insonlarning munosib hissasi bor. Jamshid Nurmatov, Javohir Hafizov, Ravshan Irisaliyev, Erkin Kushimov, Kamol Islomov, Farrux Zokirov singari o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalarning hissasi katta bo'lmoqda. Bunday fidoyi ustozlar tomonidan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari bo'lajak haydovchilarning bilim va ko'nikmalari oshishida yana ham qo'l kelmoqda.

Akbar ALI

Abdulla Qodiriy tavalludining 131 yilligi

ADABIYOT millat ko'zgusi

Buyuk yozuvchi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy adabiy merosini o'rganish hamda adib tavalludining 131 yilligi munosabati bilan "Adabiyot – millat ko'zgusi, Qodiriy – bu ko'zgudagi yorug' siymo" mavzusida Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetida katta adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.


Tadbirda fakultet professor-o'qituvchilari, talabalar va adabiyot ishqibozlari ishtirok etdi.

Abdulla Qodiriy ijodining millat ma'naviy hayotidagi beqiyos o'rni va uning tarixiy asarlari orqali xalq tafakkurini uyg'otish yo'lidagi xizmatlari haqida ma'ruzalar tinglandi. Talabalar yozuvchining mashhur asarlaridan parchalar sahnalashtirib, Abdulla Qodiriyning qalb dardi va millat ravnaqi yo'lidagi fidokorona kurashini jonli tarzda gavdalantirdi.

Adabiy-badiiy kechada ijodkor talabalar tomonidan yozuvchi ijodiga bag'ishlangan she'r va esselar

o'qilib, uning asarlarida aks etgan Vatan, muhabbat, adolat va milliy o'zlik mavzulari yuksak e'tirof etildi. Abdulla Qodiriy tavalludining 131 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda tomoshabinlarda unutilmas taassurot qoldirgan eng qiziqarli qismlardan biri "O'tkan kunlar – o'tmishdan ibrat" deb nomlangan adabiy sahna ko'rinishi bo'ldi.

Mazkur sahna ko'rinishida yozuvchining mashhur romanidagi ta'sirli voqealar jonlantirilib, asardagi murakkab hayotiy kechinmalar, muhabbat va fidoyilik, vatanparvarlik va adolat kabi yuksak qadriyatlar yorqin aks



ettirildi. Sahna ko'rinishi ishtirokchilari Otabek va Kumush obrazlarini yurakdan gavdalantirib, ularning muhabbati va fojiasini chinakam his-tuyg'ular bilan ijro etgani tomoshabinlarda chuqur taassurot qoldirdi.

Tadbir yakunida adabiyot millatning ma'naviy ko'zgusi ekani, Abdulla Qodiriyning esa bu ko'zguda o'z

xalqining tarixi, orzu-armonlarini aks ettirgan ulkan siymo ekani yana bir bor ta'kidlandi. Buyuk adibning o'lmas merosi avlodlar qalbida yashaydi va yurtimiz ma'naviyatini yuksaltirishda davom etadi!

Jamshid NAZAROV,
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori

**Diqqat,
tanlov!**

“JADIDLARNING MA’NAVİY

QAHRAMONLIGI”



Jadidchilik Turkiston milliy-ozodlik harakatining mafkurasi, o'lk xalqlarining mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllanib, jadidlar millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurishni maqsad qilgan edi. Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jadidlar, xususan milliy-ozodlik harakatining buyuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning g'oyalari asosida milliy o'zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish orqali fuqarolar, qolaversa harbiy xizmatchilarda milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishni davr talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi asosida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyati olimlar, yozuvchi va professional ijodkorlar, jurnalistlar, harbiy xizmatchilar, respublika oliy va oliy harbiy ta'lim muassasalari mutaxassislari, tadqiqotchilar hamda nashrlarimiz o'quvchilari o'rtasida ma'rifatparvar bobolarimizning hurriyatga erishish yo'lidagi ibratli hayotini targ'ib qilish, g'oyalarini harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, yoshlar ongiga singdirish, adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ularda milliy ruh, g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish, yangi marralar sari undash maqsadida "Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" deb nomlangan tanlovni e'lon qiladi.

TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlar – maqola, ocherk, esse va boshqa badiiy ijod namunalari 2025-yilning 10-apreldan 2025-yilning 10-avgustigacha (Word shaklida, 14 shriftida, kirill yoki lotin alifbosida) "Vatanparvar" birlashgan tahririyatiga yuborilishi lozim.

MANZIL:

100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy; elektron manzil: @vatanparvargazetasi_bot yoki (90) 968-62-08 telegram orqali.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- muallif pasporti (shaxsini tasdiqlovchi hujjat) nusxasi;
- muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
- muallifning xizmat (ish) joyi.

Murojaat uchun telefonlar:

(55) 511-25-91; (55) 511-25-82.

Eng sara ijodiy ishlar "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH

Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- 1-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (yigirma) barobari, diplom;
- 2-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (o'n besh) barobari, diplom;
- 3-o'rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari, diplom.

Rag'batlantiruvchi mukofot:

- 3 ta – bazaviy hisoblash miqdorining 8 (sakkiz) barobari, diplom.

Natijalar "Vatanparvar" gazetasi, mudofaa.uz sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

G'olib va sovrindorlarga mukofotlar 2025-yilning 30-avgustiga qadar tantanali ravishda topshiriladi.

"Vatanparvar" birlashgan tahririyati

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliq'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: V-5927
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 376 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya